

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

JISER

International
multidisciplinary
scientific journal



- ✓ Academic journal, an academic or scholarly periodical
- ✓ Scientific journal, an academic journal focusing on science
- ✓ Medical journal, an academic journal focusing on medicine
- ✓ Law review, a professional journal focusing on legal interpretation





*“JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND
EDUCATIONAL RESEARCH”*

VOLUME 1, ISSUE 2
(30- April)

Ushbu to'plamda "**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH** " ilmiy jurnaliga kelib tushgan maqolalar o'rin olgan.

Mazkur jurnalda zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta'limni rivojlantirishda yo'nalishlar bo'yicha kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktab o'qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ	
SO'Z BOSHI	
ANIQ FANLAR	
<i>Tangirov Ilhom Xursanovich</i> TUTAШМАЛАР ВА УЛАРНИНГ ТУРЛАРИ	7
<i>Jiyanbekova Gulnoza Xurmaxammadovna</i> MATEMATIK BELGILASHLARNING TAKOMILLASHTIRILISHI.	10
<i>Bahromov Asror Ahror o'g'li</i> <i>Tadjibayev Sherzod Rustamovich</i> 3D MODELLASHTIRISHDA MOTION CAPTURE TEXNOLOGIYASI	12
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> «... MARTA KATTA» VA «... MARTA KICHIK» MUNOSABATLARI. YIG'INDINI SONGA VA SONNI KO'PAYTMAGA BO'LIŞ QOIDALARI	15
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> SONLARNING XOSSALARI	18
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> CHEKSIZ DAVRIY O'NLI KASRLAR	20
<i>Suvonova Shaxlo Bo'stonovna</i> MATEMATIKA DARSLARIDA KO'PBURCHAKLAR MAVZUSINI O'QITISH USULLARI	22
<i>Mattiyeva Nargiza Maqsudovna</i> PISA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARIDA MATEMATIKADAN BERILGAN TOPSHIRIQLAR TAHLILI. PISA TAJRIBASI.	25
<i>Raxmatova Shoxista Baxodir qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA TO'RT XONALI SONLARNI O'QITISH METODIKASI	27
<i>Razzoqova Nargiza Olim qizi, Ikromova Gulmira Hasan qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING AHAMIYATI, MAQSAD VA VAZIFALARI	29
<i>Абдусаматов Алишер Собирович</i> БОШЛАНГИЧ МАТЕМАТИК ТАЪЛИМГА УСЛУБИЙ ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ МОҲИЯТЛИ ИННОВАЦИЯЛАР КЎРИНИШИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ.	31
ТАБИИY VA TEXNIK FANLAR	
<i>Amonov Sherali Abdihalimovich</i> GEOGRAFIYA DARSLARIDA AMALIY ISHLAR O'QUVCHI FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILIDIR.	34
<i>Aslonova Sarvinoz Orif qizi</i> BIOLOGIYANI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH YO'LLARI.	36
<i>Avliyoxonova Madinaxon Nabixon Qizi</i> BITIRUVCHI SINFLARDA FIZIKA O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	38
<i>Muhammadiyev Elyor To'lqinovich</i> BIRIKTIRISH DETALLARI BOLT, SHPILKA	41

<i>Ergasheva Mohira Ilxomjon qizi</i> FIZIKA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	45
<i>N.S. Iskandarova, N.S. Jabborova</i> KASALLIK DIAGNOSTIKASI UCHUN INFORMATIV BELGILAR MAJMUASINI ANIQLASHDA CNNNING O‘RNI	47
<i>Mehmonova Zarina Imomovna</i> KIMYO FANINING O‘QITILISHI VA UNING MUAMMOLARI	50
<i>Kushimmatov Jalol</i> BRUTSELLOZ KASALLIGI TAVSIFI	52
<i>Yusupov Sardorbek Marufovich, Ismoilov Otabek, G‘aiyev Lazizbek Valijon o‘g‘li</i> CORRECTIVE ADJUSTMENT OF MACHINES AND MACHINING ACCURACY	54
<i>Yusupov Sardorbek Marufovich, Ismoilov Otabek, G‘aiyev Lazizbek Valijon o‘g‘li</i> INCREASING THE ACCURACY OF PROCESSING ON METAL-CUTTING MACHINES	57
<i>Yusupov Sardorbek Marufovich, Ismoilov Otabek, G‘aiyev Lazizbek Valijon o‘g‘li</i> METHODS FOR RESTORATION OF BODY PARTS INSERTING HOLES	60
<i>Jo`raeva Gulbaxor Alisherovna, Begmatova Mujgona</i> MIOMA KASALLIGINI DAVOLASH VA PROFILAKTIKASI	64
<i>Mamajonov Murodjon Abdullojon o‘g‘li, Sharifjonov Ulug‘bek Ravshan o‘g‘li</i> PIYODA HARAKATI NATIJASIDA ELEKTR ENERGIYASINI ISHLAB CHIQRISH	66
<i>Nazarov Yusuf Musurmonovich</i> ORTOPEDIK STOMATOLOGIYA OLINMAYDIGAN PROTEZLARDAN IMPLANTLAR HAQIDA MALUMOT	68
<i>Nasullayev H.A., Umarov X.N.</i> NEFT MOYLARINING AHAMIYATI VA ULARNING FRAKSIYALASH	70
<i>Mirzayeva Barchinoy Hasanovna</i> YUQORI SINFLARDA FIZIKA FANINI O‘QITILISHI	72
<i>Kholmiraev Mirzohid Fazliddin o‘g‘li, Zokirov Burxoniddin Sharofiddin o‘g‘li</i> AVTOMOBIL YO‘LLARIDAGI AJRATUVCHI TO‘SIQLARDAN ENERGIYA ISHLAB CHIQRISHDA FOYDALANISH	75
<i>Астанов Вахоб Ахмадович</i> ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ БИОТУАЛЕТА	78
<i>Умуров Бобиржон Файзиллоевич, Болтаев Элмурод Бегмурадович</i> ПОРАЖЕНИЕ ПЕЧЕНИ У БОЛЬНЫХ COVID-19: ПАТОЛОГИЯ, ПАТОГЕНЕЗ И КЛИНИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	81
<i>Усманова Хилола Умматалиевна, Бобожонов Хикмат Шавкатович</i> ҚЎРҒОШИН ИОНИНИ АТРОФ МУҲИТ ОБЪЕКТЛАРИДАН АНИҚЛАШДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ЛЮМИНИСЦЕНТ РЕАГЕНТЛАР ВА УЛАРИНИНГ ТАЪСИРЛАШИШ МЕХАНИЗМИ	83
<i>Каршиев Дадахон Уралович, Турсунов Алишер Исакович</i> МЕТОДИКА РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОДЕРЖАНИЯ НА	86

УРОКАХ ФИЗИКИ	
Абдиназаров Х. Х. Мирзаев Х.Н Сиддиқов М.Н. БАЛИҚЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИДА ТАБИИЙ ОЗУҚА БАЗАСИ - ДАРҲИЯ ЕТИШТИРИШ	89
Тошов Бури Раджабович, Ҳамроев Шерзод Гулмуротович ПРИМЕНЕНИЕ ШАРНИРНОЙ МУФТЫ ДЛЯ ОЧИСТКИ ДНА РЕАКТОРА	92
Джурсаев Нодир Аблокулович, Абдуллаев Хабибулла Нарзуллаевич ЛУЧЕВАЯ ДИАГНОСТИКА РАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ У ЖЕНЩИН С ГИПОТИРЕОЗОМ	99
Муратов Рамазон Фарходович, Абдуллаев Хабибулла Нарзуллаевич МРТ ДИАГНОСТИКА РАКА ПОЧЕК	101
Н.Абдулазизова ОИЛАДА БОЛАЛАРНИНГ ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ	103
Калбайев Мирзабек, Нормуродов Абдурауф ГАЗБЕТОН: ЗАМОНАВИЙ ҚУРИЛИШ МАТЕРИАЛИ	105
Ismoilova Dildora Erkinovna UCH O'LCHAMLI QO'ZG'ALISHGA EGA UMUMLASHGAN FRIDRIXS MODELINING SONLI TASVIRI	108
Салимова Гулчеҳра Каримовна ПРОКОРИОТ ВА ЭУКАРИОТ ХУЖАЙРАЛАР ВА УЛАРНИНГ ЭВОЛЮЦИЯСИ	111
Эркинов Ж.Т., Мирзаитова М.К., Абдуллаева Г.Д., ЭКОЛОГИК ТОЗА МАХСУЛОТ	113
Юлдашев Шохрух Шухратжон ўғли, Бахриддинов Нуриддин Садриддинович АВТОМОБИЛ ЙЎЛЛАРИ ИҲОТА МАЙДОНИДАГИ ДАРАХТЛАРНИНГ ЧАНГ ТУТИШ ДАРАЖАЛАРИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ	115

ANIQ FANLAR

ТУТАШМАЛАР ВА УЛАРНИНГ ТУРЛАРИ

Тангиров Илхом Хурсанович

(ТерДу, “Муҳандислик графикаси ва дизайн назарияси” магэстранти)

Анататця: Ушбу мақолада туташмалар ва уларнинг турлари бир биридан фарқи ҳамда туташмаларни қандай чизиш босқичлари ҳақида баён этилган.

Калит сўзлар: Айлана, туташма, Детал, перпендикуляр, чизма.

Детал контурларини чизишда кўпинча бир чизиқни иккинчи чизиқ билан равон туташтиришга тўғри келади. Бундай чизмаларга туташмалар дейилади.


Туташмаларни айлана ёйларида яшаш бу тўри чизиқнинг айланага, айлананинг айланага уриниш хусусиятларига асослангандир. Туташмалар маълум қонун ва қоидалар асосида ясашиб, унда туташманинг маркази, бошланғич ва охири яъни туташув нуқталари топилади. Шундан сўнггина туташмаларни бажаришга киришилди.

Туташмаларни бажаришда бир нечта мисоллар кўриб чиқамиз:


1. Икки туташувчи тўғри чизиқлар ўзаро 90° бурчак ташкил қилган.
2. Яшаш: Берилган тўғри чизиқларнинг ҳар бирига ихтёрий нуқтадан перпендикуляр перпендикуляр ўтказиб, унга R ни ўлчаб қўйиб, берилган тўғри чизиқларга шу нуқтадан параллел тўғри чизиқлар ўтказамиз, бу чизиқлар ўзаро кесишиб, O нуқтани ҳосил қилади, бу чизиқларни давом этдирсак, улар бурчак томонларини кесиб, 1 ва 2

туташма нуқталарини ҳосил қилади. Энди O марказ орқали $O_1=O_2$ радиус билан туташмани бажарамиз (1-расм, а).


Худди шу усул билан $\alpha > 90^\circ$ ёки $\alpha < 90^\circ$ бўлган ҳоллар учун ҳам туташмалар яшаш мумкин, фақат тутатиш нуқталарини топиш учун O нуқтадан берилган тўғри чизиқларга перпендикуляр тушириб 1 ва 2 нуқталар топилади. Шундан сўнг бу нуқталар топилган марказ O дан R радиус билан туташтирилади.



1-расм:



Айланаларга уринма тўғри чизик ўтказишда (1-шакл,а) айланалар радиуслари ўзаро тенг бўлса, уларнинг марказлари туташтирилади ва O, O_1 нуқталардан OO_1 чизикқа перпендикуляр қилиб радиуслари чизилади. Шунда айланаларда ўтиш нуқталари 1 ва 2 аниқланади. Бу нуқталар ўзаро туташтирилса, айланаларга уринма тўғри чизик ўтказилган бўлади.



2-

расм:





Figure 2.5 Example 2.5


1- Айланаларни ташқи томонидан айлана ёйи билан туташтириш учун (3-шакл), берилган туташтириш радиуси R ни R_1 га қўшиб, $R+R_1$ га тенг радиусда O_1 дан, $R+R_2$ га тенг радиусда O_2 дан ёйлар чизилади ва уларнинг ўзаро кесишишидан туташтириш маркази O ҳосил бўлади. O билан O_1 ва O_2 лар




туташтирилса, айланаларда ўтиш нуқталари 1 ва 2 топилади. 0 нуқта орқали бу ўтиш нуқталари R радиусда туташтирилади.

Айланаларни туташтиришда ички туташма ҳосил қилиш учун (5-шакл), берилган туташтириш радиуси R дан O_1 марказли айлана радиуси айирмаси $R-R_1$ га тенг радиусда O_1 дан, $R-R_2$ га тенг радиусда O_2 дан ёйлар чизилса, улар ўзаро кесишиб, туташтириш маркази 0 топилади. 0 билан O_1 ва O_2 туташтирилиб давом эттирилса, айланаларда ўтиш нуқталари

1 ва 2 ҳосил бўлади. 1 ва 2 нуқталар радиус R да туташтирилади.



5-шакл




6-шакл

Мисол. O_1 марказли айланага ташқи, O_2 марказли айланага ички туташма берилган R радиусда бажарилсин, (6-шакл).

$R+R_1$ да O_1 дан, $R-R_2$ радиусда O_2 дан ёйлар чизилади ва уларнинг ўзаро кесишишидан ҳосил бўлган туташтириш маркази 0 аниқланади. 0 билан O_1 ва O_2 лар туташтирилади. Шунда O_1O оралиғида 1, O_2O нинг давомида 2 ўтиш нуқталари топилади. 0 нуқта орқали R радиусда топилган ўтиш нуқталари туташтирилади. Натижада аралаш туташма ҳосил бўлади.

Мисол. Детал контури тутаשמалар қондасига бинон кўрсатилган ўлчамларда кўчириб чизилсин.



(7-шакл,а).

АДАБИЁТЛАР

1. Ro‘ziyev E. I. “Chizmachilik o‘qitish metodikasi fanidan ma’ruzalar matni” Urganch 2001 yil.

2. Ro‘ziyev E.S. “Chizmachilik o‘qitish mitodikasi” Urganch 2002 yil.

MATEMATIK BELGILASHLARNING TAKOMILLASHTIRILISHI.

Jiyanbekova Gulnoza Xurmaxammadovna*Andijon viloyati Paxtaobod tumani
33-maktab Matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada berilgan Matematik belgilashlarning takomillashtirilishi haqidagi ma'lumotlardan matematika darslarida foydalanishingiz mumkin.*

Tayanch iboralar: *matematik belgilar, belgilashlarning yaratilishi, asosiy belgilarning takomillashuvi.*

Matematik belgilashlarni takomillashtirish Aristotel davridan boshlangan deb hisoblash mumkin. Masalan, u har bir matematik mulohazadagi parametrlar uchun alohida belgilash kiritgan. Noma'lumlar va ularning darajalari uchun doimiy, hapfiy belgilashlarni qadimgi yunon matematigi Diofant (taxminan IX asr) kiritgan. Harfiy belgilashlarning ahamiyati faqat fransuz matematigi **F r a n s u a V i y e t** (1540-1603) ularni ma'lum miqdorlar va tenglamalar koeffitsiyentlariga qo'llagandan so'ng ma'lum bo'ldi. Harfiy koeffitsiyentlarning kiritilishi bilan algebraik tenglamalarni tekshirish va ildizlarini topish umumiy formulalarinn tuzish mumkin bo'ldi.

Viyet koeffitsiyentlarni katta undosh harflar V, D, \dots bilan, noma'lumlarni katta unli A, Ye, l harflar bilan belgilagan. Dekart esa koeffitsiyentlarni belgilashda dastlabki lotin a, b, s, \dots harflar ni ishlatgan bo'lsa, noma'lumlar uchun oxirgi x, y, z harflaridan foydalangan.

Diofantda ayirish uchun maxsus belgi bor edi, lekin qo'shishda qator yozilgan sonlar hadlar deb tushunilib, qo'shilar edi.

Noma'lum va parametrlar uchun harfiy belgilashlarni Yevropada XVI asrda dastlab Parij universiteti professori, matematik va mexaniq **Jordan N y e m o r a r i y** (Jordan) (1236 yilda vafot etgan) qo'lyozmalarida uchratish mumkin, lekin unda amallar ishoralari yo'q edi, bu harfiy formulalarni keltirib chiqarishga xalaqit berar edi. Nemorariy «Arifmetika» asarida arab raqamlaridan foydalangan.

Amallarni belgilash uchun maxsus belgilarning paydo bo'lishi bilan matematika vujudga keldi. XIV- XV asrlarda qo'shish amali avvalo «P» (*plus*— ko'p), ayirish esa «m» (*minus* — kam, ayirish) harflari bilan belgilangan. « - » va « + » belgilari esa savdodan kelib chiqqan degan faraz bor, unga ko'ra, tovarning kamayishi gorizonta chiziqchalar (-) bilan belgilangan bo'lsa, uning to'ldirilishi esa zarur sondagi chiziqchalarni o'chirish (+) bilan belgilangan.

XV-XVI asrlarda kitob bosishning ixtiro qilinishi bilan matematik yozuvlar yanada takomillasha bordi. Nemis matematigi Yan Vidman (1460- taxminan 1498) ning, Leypsigda 1489 yilda bosmadan chiqqan «Barcha savdogarlar uchun tez va chiroyli hisob» asarida birinchi marta bosmada « - » va « + » ishoralari va ko'paytirish jadvali chop etildi. Nemis astronomi va matematigi **Regiomontan** (taxallusi **I o g a n n M y u l l y e r**) (1436-1476) matematika bo'yicha birinchi kitob noshiri hisoblanadi, u ko'paytirish belgisi sifatida (.)

nuqtadan foydalandi.

Fransuz matematigi Nikola Orem natural ko'rsatkichli darajalarni yozish usulini kashf etgan bo'lsa, bo'lish belgisi (-) gorizontal chiziq arab olimlari ishlaridan olingan.

1557 yilda ingliz tabibi va matematigi Pober Pyekord (1510-1558),

ingliz tilidagi birinchi arifmetika va algebra bo'yicha o'quv qo'llanmalari muallifi, (=) tenglik belgisini ishlatdi, u buning sababini tushuntirib, ikki narsa o'zaro ikkita parallel kesmalar tengligidan ortiqroq teng bo'la olmasligini ta'kidlagan edi. Tenglik belgisi faqat XVIII asrda Leybnis va uning izdoshlari tomonidan boshlab qo'llanila boshladi.

Boshqa bir ingliz matematigi Garriot Tomas (1560-1621) 1631 yilda birinchi bo'lib, katta, kichik belgilarini kiritdi. Bu belgilar birinchi marta uning 1631 yilda bosilib chiqqan «Analitik san'at tajribasi» nomli kitobida uchraydi. Uning fikricha, agar ikkita narsa teng bo'lmasa, tenglik belgisidagi kesmalar parallel emas, ular kesishadi: kesishish o'ngdan (>) yoki chapdan (<) bo'lishi mumkin. Birinchi holda tengsizlik «katta», ikkinchisida esa «kichik»ni belgilaydi. Shuningdek, Garriot sonlarni belgilash uchun alifboning kichik xarflaridan foydalangan, tenglamalarni hozirgiga yaqin shaklda yozgan.

Qat'iy bo'lmagan tengsizliklar belgilarini \geq, \leq 1734 yilda fransuz matematigi Pyer Buge (1698-1758) tomonidan \geq, \leq shakllarda kiri-tilgan.

VIII asrdan boshlab - Yevropa matematiklari ishlarida ildiz lotincha *Radix* (ildiz) yoki qisqacha R, so'ngra fransuz matematigi Nikola Shyuke (taxminan 1445-taxminan 1500 yillar) ishlarida shaklida qo'llanilgan. Umuman, matematika tarixi bo'yicha manbalarning dalolat berishncha ildiz belgisi ($\sqrt{\quad}$) quyidagi rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan:

1. XV asr - nemis algebrachilari «kossist»lar ifoda yoki son oldida nuqta, italiyaliklar esa uni cosa deb tarjima qilganlar. Nemislar «koss» va «kossist» atamalarini ulardan olishgan,

2. 1480 yil -tez yozishlar tufayli belgisi paydo bo'ldi (kvadrat ildiz); kubik ildiz; to'rtinchi darajali - ildiz.

3. 1525 yil - Strasburg, chex matematigi Krishtof Rydolf (taxminan 1500-1545) algebra bo'yicha o'quv qo'llanmasida ildiz sifatida «V» belgisini ishlatdi.

4. 1626 yil — Golland matematigi Albert Jirar, $\sqrt{\quad}, \sqrt[3]{\quad}$ va h.k. belgilarni kiritdi, keyinroq $\sqrt{\quad}$ shaklda qo'llanila boshladi.

5. 1637- yil R. D y e k a r t n i n g «Geometriya» kitobida ildiz u shaklida uchraydi.

6. 1685 yil - Nyuton «Universal arifmetika»da ham shu belgidan foydalangan.

7. 1690 yil - fransuz matematigi Mishel Roll (1652-1719) ning «Algebradan qo'llanma» asarida hozirgi ko'rinishda birinchi marta qo'llanilgan. Matematik belgilashlarni rivojlantirishda Markaziy Osiyolik matematik olimlar ham o'z hissalarini qo'shganlar. Masalan, A l - X o r a z m i y o'zining mashhur «Kitob al-jabr val muqobala» asarida noma'lumlar va ifodalarni belgilashda maxsus belgilardan foydalangan.

Bahromov Asror Ahror o‘g‘li

(Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU

“Audiovizual texnologiyalari” kafedrası assistenti)

Tadjibayev Sherzod Rustamovich


(Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU

“Audiovizual texnologiyalari” kafedrası magistranti)

Annotatsiya: *Motion Capture (Mocap) – inson harakatlarini qayd etishning raqamli usuli. Yozib olingan harakatlanuvchi ma’lumotlar 3D formatdagi (masalan, Unreal Engine, Unity 3D, Maya yoki 3D Studio Max) raqamli modelida aks etadi, shuning uchun raqamli belgilarsiz yozgan aktyorga o‘xshab harakat qiladi. Mo Cap texnologiyasi o‘yin-kulgi sohasida, filmlar va o‘yinlar uchun ko‘proq haqiqiy inson harakatida ishlatiladi.*

Hozirda zamonaviy 3D multfilmlarni tayyorlashda biz albatta chet el tajribasidan foydalanib zamonaviy texnologiyalarni targ‘ib etmog‘imiz lozim. Bu texnologiyalarning eng mashhurlaridan biri Motion Capture texnologiyasidir. Bu texnologiya O‘zbekistonda kam ishlatilsada, hozirda butun dunyoda nafaqat multfilmlar tayyorlashda, balki, kinofilmlarda ham keng qo‘llanilib kelinmoqda. Hozirda kinomatografiya shunchalik vizual olamga shung‘idiki, buning natijasida vizual shaharlar, odamlar va turli ko‘rinishdagi mavjudotlar ishlab chiqila boshlandi. Oldinlari animatsiya so‘zi faqat multfilm ishlab chiqarishda ishlatilgan bo‘lsa, endilikda bu tushuncha kinofilmlar uchun ham keng qo‘llaniladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, animatsiya umumiy va keng qamrovli tushunchadir.

Animatsiya qilinayotgan obyektни reallashtirish, ya’ni uning harakatini jonli ko‘rinishga keltirish bu ancha mushkul jarayon hisoblanadi. Chunki odam tanasida juda ko‘plab muskullar va suyaklar mavjud. Ularning har birini obyektga bog‘lash animator dan katta mahorat va sabr talab qiladi. Tasvir qismlarining oddiy mexanizmlar orqali jismoniy harakatlanishi, masalan sehrlı chiroqlardagi harakatlanuvchi tasvirlar, animatsiya deb ham qaralishi mumkin. Haqiqiy robotik qurilmalarning mexanik animatsiyasi “animatronika” deb nomlanadi. Animatorlar animatsiya yaratishda ixtisoslashgan rassomlardir. Oldinlari bitta to‘liq metrajlimultfilm yaratish uchun animatirlarga 4-5-yil ketgan bo‘lsa, hozirgi zamonaviy texnologiyalar yordamida bu muddat sezilarli qisqardi. Bu texnologiyalardan biri bu — Motion capture texnologiyasidir. Ko‘zingizni yumib o‘tmishga sayohat qilib ko‘rin. Bizga sevimli bo‘lib qolgan multfilmni eslab ko‘rina, Uolt Disney tomonidan yaratilgan mikymouse o‘zdavr iningyangi ligigaaylandi. Shu davrda Disney birinchi bor harakatlarni ushlab olish texnologiyasini yaratdi. Shu texnologiyani multfilmuchunish latganida menimcha u hozirga kelib butexnologiya kino, kompyuter o‘yinlari va multfilmlarda keng qullanilishini hayoliga keltirmagan bo‘lsa kerak. Bu yangi texnologiyani nomi: harakatni ushlab qolish — Motion Capture yoki qisqartirilgan holda mocap texnologiyasi.



1-rasm. Mocap texnologiyasiga misol.

Motion capture (Mo‘ynali kiyim qisqartma shakli) – ob‘ektlar yoki odamlarning harakatlanishin qayd etish jarayoni. U harbiy, o‘yin-kulgi, sport, tibbiy dasturlarda va kompyuterniko ‘rishda va roboti kauchun ishlatiladi. Kinematizm va video o‘yinlarni ishlab chiqishda, bu inson aktyorlarining xatti-harakatlarini yozib lish va ushbu ma‘lumotdan 2D yoki 3D kompyuterli animatsiyasida raqamli belgilar modellarini jonlantirish uchun ishlatiladi. U yuz va barmoqlarni o‘z ichiga olgan yoki nozik ifodalarni tortadigan bo‘lsa, u ko‘pinchai shlashni ta‘qib qilish deb nomlanadi. Ko‘pgina sohalarda harakatni ta‘qib qilishni ba‘zan harakatni kuzatish deb atash mumkin, ammo kinematografiyada va o‘yinlarda harakatni kuzatish odatda harakatga mos keladigan boshqa narsalarni anglatadi. Kamera harakatlari ham harakatlantirilishi mumkin, shuning uchun sahnadagi virtual kamera, agar aktyor ijro etayotganda, kamera operatori tomonidan boshqariladigan sahna atrofida o‘ynash, o‘ynash yoki to‘ldirishni boshlaydi. Shu bilan birga, harakat ta‘qib qilish tizimi kamera va rekvizitlar hamda aktyorlarning ishlashini ham qamrab oladi. Bu kompyuter tomonidan yaratilgan belgilarni, tasvirlarni va setlarni kameradan olingan video tasvirlar bilan bir xil nuqtai nazarga ega bo‘lishiga imkon beradi. Kompyuterda ma‘lumotlarni qayta ishlash va aktyorning harakatlarin aksettiradi va kerakli kamera pozitsiyalarini setdagi narsalar jihatidan ta‘minlaydi. Retro aktiv ravishda olingan suratlardan olingan kamera harakati ma‘lumotlarini olish, o‘yinni harakat yoki kamera tomosha qilish deb nomlanadi.



2-rasm. Mocap texnologiyasining filmdagi tatbiqi.

Harakatni tutib olish – bu ishning yagona uch o‘lchovli tasviriga ega bo‘lish uchun, tegishli vaqt mobaynida bir qancha asosiy nuqtalarni kuzatish orqali jonli harakat voqealarini yozib borish va ularni foydalaniladigan matematik ifodalarga o‘tkazish jarayoni hisoblanadi. Umuman olganda, bu texnologiya, hayotiy ishlarni raqamli bajarishlarga ko‘chirish jarayonini ta‘minlaydi. Harakati tutib olingan predmetlar har qanday obyekt bo‘lishi mumkin, qaysiki, real olamda mavjud va harakatga ega bo‘lishi kerak. Sohalarning asosiy nuqtalari predmetning turli qo‘zg‘aluvchan qismlar harakatini juda yaxshi ifodalaydi. Ushbu nuqtalar tayanch nuqtalar yoki predmetning qattiq sohalari o‘rtasidagi bog‘lanish bo‘lishi kerak. Animatsiyani amalga oshirish harakatni tutib olishning aynan o‘zginasi emas, garchi ko‘pchilik ushbu ikkita o‘zaro aloqado rtushunchalarni ishlatishsada, harakatni tutib olish harakatlarni to‘plashda ishlatiladigan texnologiyaga tegishli, animatsiyani amalga oshirish foydalaniladigan texnologiyaga bog‘liq bo‘lmagan ravishda, hayotga tavsif berish uchun ishlatiladigan aniq ishlarga tegishli. Bunga erishish uchun, harakatni tutib olishning barcha jarayonlari orqali o‘tish va olingan ma‘lumotlarni 3D xarakterda aksettirish kerak. Qisqacha aytganda, harakatni tutib olish harakatlarni ifodalovchi ma‘lumotlar to‘plami, ayni vaqtda, animatsiyalarni amalga oshirish bajaruvchi tomonidan boshqaruv xarakteridagi yakuniy mahsulot hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adriana Schulz, Luiz Velho. Motion Capture. Rio de Janeiro, May 6, 2010.
2. Maureen Furniss. Motion Capture. MIT Communications Forum, <http://web.mit.edu/comm-forum/papers/furniss.html>;
3. Chris Bregler. Motion capture technology for entertainment [in the spotlight]. Signal Processing Magazine, IEEE, 24(6):160, November 2007.

«... MARTA KATTA» VA «... MARTA KICHIK» MUNOSABATLARI.
YIG'INDINI SONGA VA SONNI KO'PAYTMAGA BO'LISH QOIDALARI

Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Qarshi filiali 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Bir son ikkinchi sondan necha marta katta yoki kichik, degan savol masalalar yechishda va amaliy faoliyatda har qadam- da uchraydi. «... marta katta» va «... marta kichik» munosabatlari bilan dastlabki tanishish boshlang'ich maktabda yuz beradi.

Kalit so'zlar: bir son ikkinchi sondan necha marta katta yoki kichik ekanligini bilish, sonni bo'linuvchiga ko'paytirish va hosil bo'lgan ko'paytmani bo'linuvchiga bo'lish.

1- ta'rif. Agar $a = n(A)$, $b = n(B)$, $a > b$ bo'ladigan a va b sonlar berilgan va A to'plamni B to'plamga teng quvvatli c ta qism to'plamga ajratish mumkin bo'lsa, a soni b sonidan c marta katta, b soni esa a sonidan c marta kichik, deb aytiladi.

Ammo bu c sonining o'zi nimani ifodalaydi? Nazariy — to'plamlar nuqtayi nazaridan bu a va b sonlarining bo'linmasidir. Bundan quyidagi qoida hosil bo'ladi:

Qoida. Bir son ikkinchi sondan necha marta katta yoki kichik ekanligini bilish uchun katta sonni kichik songa bo'lish zarur.

1- misol. 3 tup olma va 12 tup olcha o'tqazildi. Olchalardan necha marta kam olma o'tqazildi?

Yechish. Yuqoridagi qoidada qo'yilgan savolga bo'lish yordamida javob topiladi, ya'ni $12:3 = 4$ (marta). «.. marta ko'p» va «.. marta kam» munosabatlar boshqa ko'rinishdagi masalalarda ham uchraydi.

2- misol. Zulfiyada 6 ta daftar, Ra'noda esa undan 2 marta kam daftar bor. Ra'noda nechta daftar bor?

Y e c h i s h. Zulfiyadagi daftarlar to'plami A , Ra'nodagi daftarlar to'plami B bo'lsin. $n(A) = 6$ ekani ma'lum. $n(B)$ sonni topish talab etilgan. Bu shartdan kelib chiqib, A to'plamni teng quvvatli ikkita qism to'plam ko'rinishida tasvirlash mumkin, u holda R to'plamda A to'plamning har bir qism to'plamida nechta element bo'lsa, shuncha element bo'ladi, bu son bo'lish bilan topiladi, ya'ni $6:2 = 3$. Demak, $n(B) = 3$, ya'ni, Ra'noda 3 ta daftar bor ekan.

3- misol. Bunyodda 3 ta daftar, Ismatulloda esa undan 4 marta ko'p daftar bor. Ismatulloda nechta daftar bor?

Y e c h i s h. Bu masalada ham oldingi masaladagi kabi ikkita to'plam, Bunyoddagi daftarlar to'plami A va Ismatullodagi daftarlar to'plami B qaraladi. $n(A) = 3$ ekani ma'lum. B to'plamdagi elementlar soni A to'plamdagi elementlar sonidan 4 marta ko'p ekanini bilgan holda, $n(B)$ ni topish talab etiladi. Bu B to'plam A to'plamdagi teng quvvatli kesishmaydigan to'rtta B_1, B_2, B_3, B_4 qism to'plamdan iborat ekanini anglatadi va, demak, $n(B) = n(B_1) + n(B_2) + n(B_3) + n(B_4) = n(A)$. Bu holda B to'plamdagi elementlar sonini qo'shish bilan topish

mumkin: $n(B) = n^A B^A B^A B^A B^A = n(B_1) + n(B_2) + n(B_3) + n(B_4) = 3 + 3 + 3 + 3 = 3 \cdot 4 = 12$.

Demak, Ismatulloda 12 ta daftar bor ekan.

1- qoida. Agar a va b sonlar c songa bo'linma, u holda ularning $a + b$ yig'indisi ham c ga bo'linadi. $a + b$ yig'indini c ga bo'lganda hosil bo'ladigan bo'linma, a ni c ga va b ni c ga bo'lganda hosil bo'ladigan bo'linmalar yig'indisiga teng, ya'ni:

$$(a + b) : c = a : c + b : c.$$

Isbot. 1- usul. a soni c ga bo'lingani uchun $a = C'm$ bo'ladigan $m = a:c$ natural son mavjud. Shunga o'xshash, $b = c \cdot n$ bo'ladigan $n = b:c$ natural son mavjud. U holda $a + b = C'm + C'n = C'(m + n)$.

Bundan $a + b$ yig'indining c ga bo'linishi va $a + b$ ni c ga bo'lganda hosil bo'ladigan bo'linma $m + n$ ga teng bo'lishi, ya'ni $a:c + b:c$ ekanini kelib chiqadi.

2- usul. $a = n(A)$, $b = n(B)$, bunda A va $B = 0$ bo'lsin. Agar A va B to'plamlarning har birini c ga teng quvvatli qism to'plamlarga ajratish mumkin bo'lsa, u holda bu to'plamlar birlashmalarini ham shunday ajratish mumkin.

Agar A to'plamni ajratishdagi har bir qism to'plam $a : c$ elementga va B to'plamning har bir qism to'plami $b : c$ elementga ega bo'lsa, u holda $A \cup B$ to'plamning har bir qism to'plamida $a : c + b : c$ element mavjud bo'ladi. Bu esa $(a + b) : c = a : c + b : c$ ekanini anglatadi.

2- qoida. Agar a natural son b va c natural sonlarga bo'linma, u holda a sonni b va c sonlar ko'paytmasiga bo'lish uchun a sonni $b(c)$ ga bo'lish va hosil bo'lgan bo'linmani c ga bo'lish yetarli, ya'ni $a : (b \cdot c) = (a : b) : c = (a : c) : b$ (sonni ko'paytmaga bo'lish qoidasi).

Isbot. $(a : b) : c = x$ deb faraz qilaylik. U holda bo'linmaning ta'rifiga ko'ra, $a : b = c \cdot x$ bo'ladi, shunga o'xshash $a = b(c \cdot x)$ bo'ladi. Ko'paytirishning guruhlash qonuniga asosan, $a = (b \cdot c) \cdot x$ bo'ladi. Hosil bo'lgan tenglik $a : (b \cdot c)$ ekanini bildiradi. Shunday qilib, $a : (b \cdot c) = a : (b \cdot c)$.

3- qoida. Sonni ikki sonning bo'linmasiga ko'paytirish uchun bu sonni bo'linuvchiga ko'paytirish va hosil bo'lgan ko'paytmani bo'linuvchiga bo'lish yetarli, ya'ni $a : (b : c) = (a \cdot b) : c$ (sonni ikki sonning bo'linmasiga ko'paytirish qoidasi).

Bu qoidaning isboti avvalgi qoidaning isbotiga o'xshash. Ifodalangan qoidalarning qo'llanishi ifodani soddalashtirish imkonini beradi.

4- misol. $(720 + 600) : 24$ ifodaning qiymatini toping. Yechish. $(720 + 600) : 24$ ifodaning qiymatini topish

uchun 720 va 600 qo'shiluvchilarni 24 ga bo'lish va hosil bo'lgan bo'linmalarni qo'shish yetarli, ya'ni:

$$(720 + 600) : 24 = 720 : 24 + 600 : 24 = 30 + 25 = 55.$$

5- misol. $1440 : (12 \cdot 15)$ ifodaning qiymatini toping. Yechish. $1440 : (12 \cdot 15)$ ifodaning qiymatini avval 1440

ni 12 ga bo'lib, keyin hosil bo'lgan bo'linmani 15 ga bo'lib topish mumkin, ya'ni:

$$1440 : (12 \cdot 15) = (1440 : 12) \cdot 15 = 120 : 15 = 8.$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bikboyeva N. va boshqalar. Ikkinchi sinf matematika darsligi. — T.: «O‘qituvchi», 2008.
2. Jumayev M. Bolalarda matematik tushinchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. — T.: «Ilm-Ziyo», 2009.
3. Jumayev M. va boshqalar. Matematika o‘qitish metodikasi. — T.: «Ilm-Ziyo», 2003.
4. Jumayev M. Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. —T.: «O‘qituvchi», 2004.
5. Jumayev M. Boshlang‘ich sinflarda matematikadan laboratoriya mashg‘ulotlari. — T.: «Yangi asr avlodi», 2006.
6. Stoylava L. P., Pishkalo A. M. Boshlang‘ich matematika asoslari. — T.: «O‘qituvchi», 1991.

SONLARNING XOSSALARI

Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Qarshi filiali 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematikaning eng muxim mavzularidan biri bo'lgan sonlarning xossalari mavzusiga doir misol va masalalar keltirildi. Ibn Sino aytishicha, sonlarning tabiiy qatori shunday berilgan: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13,Bunday qatordagi har bir sonning boshqalariga turlicha bog'lanishlari xossalari olim tomonidan ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Qo'shishga tegishli xossalari, Ikki va undan ortiq bo'luvchisi bor sonlar, Har qanday sonning o'z-o'ziga ko'paytmasi.

Ibn Sino aytishicha, sonlarning tabiiy qatori shunday berilgan: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13,

Bunday qatordagi har bir sonning boshqalariga turlicha bog'lanishlari xossalari olim tomonidan ko'rsatib beriladi.

Sonning eng ilgari mashhur xossasi:

1. Har bir son yonidagi kichigi bilan kattasi yig'indisining yarmiga teng va o'zidan shunday teng uzoqlikdagi sonlar yig'indisining yarmiga teng.

Masalan, 5 ni tanlasak, yonidagi kichigi 4, kattasi 6. Ko'ramizki, $5 = (4 + 6) : 2$, bu 5 dan 3 va 7, 2 va 8 dan teng uzoqlikda, shuning uchun $5 = (3 + 7) : 2$ va $5 = (2 + 8) : 2$.

2. Har bir son o'z-o'ziga ko'paytmasining 2 martasiga 2 qo'shilgani bilan ikki yondagi qo'shni sonning o'z-o'ziga ko'paytmasi yig'indisiga teng bo'ladi.

Berilgan son 6 bo'lsin, yonidagi sonlar 5 va 7.

$$6 \cdot 6 \cdot 2 + 2 = 74, 5 \cdot 5 + 7 \cdot 7 = 74.$$

$$\text{Demak, } 6 \cdot 6 \cdot 2 + 2 = 5 \cdot 5 + 7 \cdot 7.$$

3. Har qanday sonning o'z-o'ziga ko'paytmasi unga qo'shni bo'lgan sonlar ko'paytmasiga bir qo'shilganiga teng:

$$\text{Masalan, } 5 \cdot 5 = 4 \cdot 6 + 1 \text{ yoki } 8 \cdot 8 = 7 \cdot 9 + 1.$$

4. Sonlar sanog'i toq bo'lsin: $1+2 + 3 + 4 + 5 + 6 + 7$ — sanog'i 7 ta. Buni $7 + 6 + 5 + 4 + 3 + 2+1$ ko'rinishda yozamiz. Tushunish osonki, $7 \cdot (7 + 1) : 2 = 28$.

5. Sonlar sanog'i juft bo'lsin: $1 + 2 + 3 + 4$, sanog'i 4 ta. $4 + 3 + 2 + 1$ ko'rinishda yozamiz, bundan $4 \cdot (4 + 1) : 2 = 10$.

Qo'shishga tegishli xossalari:

1. Sonlar ketma-ket ortib boruvchi bo'libgina qolmay, 2 tadan, 3 tadan, 4 tadan... ortib boruvchi bo'lsin.

Birov aytsaki, qatordagi sonlarning birinchisi 4, ikkinchisi 7, uchinchisi 10, ya'ni keyingi har biri oldingisidan 3 tadan ortiq bo'lsa, unday qatordagi 7 ta son yig'indisi qancha bo'lsa, shunday 2 ta qator yozamiz:

$$4 + 7 + 10 + 13 + 16 + 19 + 22 = 91, 22+19+16+13 + 10 + 7 + 4 = 91.$$

Natijadan shu narsa ma'lumki, bitta qator yig'indisi:

$$7 \cdot (4 + 22): 2 = 7 \cdot 13 = 91.$$

Demak, qatordagi sonlar yig'indisi birinchi son hamda oxirgi son yig'indisining yarmi bilan qatordagi sonlar sanog'i ko'paytmasiga teng boiadi.

Qatordagi sonlar bittadan ortib bomvchi boisin: $1 + 2 + 3 + 4 + 5$. Qatorda 5 ta son bor. Bularning yigindisi:

$$5 \cdot (1 + 5): 2 = 5 \cdot 3 = 15 \text{ yoki } 1 + 2 + 3 + 4 + 5 = 15.$$

2. Sonlar qatoridagi toq sonlar yig'indisi sonlar sanogining o'z-o'ziga ko'paytmasiga teng. Masalan, qatordagi sonlar:

$1 + 3 + 5 + 7 + 9$ boisin. Sanogi 5 ta. Yig'indisi $5 \cdot 5 = 25$ boiadi. Shuningdek, $1 + 3 = 2 \cdot 2 = 4$; $1 + 3 + 5 = 3 \cdot 3 = 9$; $1 + 3 + 5 + 7 = 4 \cdot 4 = 16$; $1 + 3 + 5 + 7 + \dots + 33 + 37 + 39 = 20 \cdot 20 = 400$. Chunki bu qatordagi sonlar sanog'i 20 ta, qonuniyatni chiqarish uchun $1 + 3 + 5 + 7$ qatomi $1 + (2 + 1) + (3 + 2) + (4 + 3)$ ko'rinishda yoki $1 + 2 + 3 + 4 + 1 + 2 + 3$, yoki $1 + 2 + 3 + 4 + 3 + 2 + 1$, yoki $1 + 2 + 3 + 3 + 2 + 1 + 4$ ko'rinishda, yoki $(1 + 3) \cdot 3 + 4$, yoki $4 \cdot 3 + 4$, yoki $4 \cdot (3 + 1) = 4 \cdot 4 = 16$ ko'rinishda yozamiz.

3. Opa-singil Mohigul va Maqsuda, aka-uka Jasur va Jahon- gir barcha bir va ikki xonali sonlarni bo'linishiga ko'ra tekshirib chiqishib, quyidagi xulosaga kelishdi. 2, 3, 5, 7, 11, 13, 19, 23, 29, 31, 37, 41, 43, 47, 49, 51, 61, 67, 71, 73, 79, 83, 89, 97 lar «xuabin» sonlar ekan.

4, 9, 25, 49 sonlari esa «xaxis» — atigi birgina bo'luvchisi bor sonlar guruhini tashkil etar ekan.

Ikki va undan ortiq boiuvchisi bor sonlar ko'pchilikni — tekshirilgan sonlarning uchdan ikki qismini tashkil etarkan. Ammo to'rtta: 60, 72, 90, 96 sonlarning bag'rilari juda keng ekan. Negaki, ularning har biri o'zlari va 1 ni istisno etganda, oz emas, ko'p emas, roppa-rosa o'ttiztadan songa bo'linar ekan!

$$60 = 2 \cdot 30, 3 \cdot 20, 4 \cdot 15, 5 \cdot 12, 6 \cdot 10 \text{ va h.k.};$$

$$72 = 2 \cdot 36, 3 \cdot 24, 4 \cdot 18, 6 \cdot 12, 8 \cdot 9 \text{ va h.k.};$$

$$90 = 2 \cdot 45, 3 \cdot 30, 5 \cdot 18, 6 \cdot 15, 9 \cdot 10 \text{ va h.k.};$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bikboyeva N. va boshqalar. Ikkinchi sinf matematika darsligi. — T.: «O'qituvchi», 2008.
2. Jumayev M. Bolalarda matematik tushinchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. — T.: «Ilm-Ziyo», 2009.
3. Jumayev M. va boshqalar. Matematika o'qitish metodikasi. — T.: «Ilm-Ziyo», 2003.
4. Jumayev M. Matematika o'qitish metodikasidan praktikum. — T.: «O'qituvchi», 2004.
5. Jumayev M. Boshlang'ich sinflarda matematikadan laboratoriya mashg'ulotlari. — T.: «Yangi asr avlodi», 2006.

Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Qarshi filiali 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematikaning eng muxim mavzularidan biri bo'lgan cheksiz davriy o'nli kasrlar mavzusiga doir misol va masalalar keltirildi. Sonning o'nli yozuvida verguldan keyin bunday ketma-ket takrorlanadigan raqamlar gumhi davr deyiladi. Yozuvida davr qatnashgan cheksiz o'nli kasr davriy kasr deyiladi.

Kalit so'zlar: aralash davriy kasr shunday oddiy kasiga tengki, aks holda sonni chekli o'nli kasr ko'rinishida yozish mumkin bolar edi.

y kasmi olamiz. Uning maxraji 7 soni boigani uchun uni o'nli kasr ko'rinishida yozib boimaydi. Bunda chekli o'nli kasr ko'zda tutiladi. Demak, 6 ni 7 ga boiish jarayoni cheksiz boiadi, aks holda sonni chekli o'nli kasr ko'rinishida yozish mumkin bolar edi. Shuning uchun - kasr o'nli kasrga teng, deb hisoblanadi. Undan tashqari, 6 ni 7 ga boiganda boiinmada raqamlar gumhi takrorlanishi ko'zga tashlanadi; $\sim = 0,857142857142857142\dots$

1- qoida. Sonning o'nli yozuvida verguldan keyin bunday ketma-ket takrorlanadigan raqamlar gumhi davr deyiladi.

2- qoida. Yozuvida davr qatnashgan cheksiz o'nli kasr davriy kasr deyiladi.

Davrni kichik qavs ichida bir marta yozish qabul qilingan: $y = 0,(857142)$.

Davriy kasrlar ikki guruhga, ya'ni sof va aralash davriy kasrlarga bo'linadi.

Sof davriy kasrlarda davr verguldan keyin darhol boshlanadi, aralash davriy kasrlarda vergul va davr orasida boshqa o'nli xonalar bor bo'ladi.

Masalan, $0,(857142)$ — sofdavriy kasr, $3,27(346)$ — aralash davriy kasr.

Qisqarmas kasr maxrajining tub ko'paytuvchilarga yoyilmasida 2 va 5 dan farqli boshqa ko'paytuvchi bo'lgan holda har doim kasr davriy o'nli kasr ko'rinishida ifodalanadimi?

Agar \sim kasr qisqarmas va maxrajning yoyilmasida 2 va 5 dan farqli boshqa tub ko'paytuvchi bo'lsa, kasr cheksiz davriy o'nli kasr ko'rinishida ifodalanadi.

Xulosa. Ixtiyoriy musbat ratsional sonni chekli o'nli kasr orqali ifodalash mumkin.

Natija. Ixtiyoriy musbat cheksiz o'nli kasr biror musbat ratsional sonni ifodalaydi.

3- qoida. \sim musbat ratsional sonni cheksiz davriy o'nli kasr ko'rinishida yozish uchun suratni maxrajga boiish kerak.

Savol. \sim cheksiz davriy o'nli kasrni oddiy kasr ko'rinishida qanday yozish mumkin?

Javob: Cheksiz davriy o'nli kasr $0,(28)$ berilgan boisin, ya'ni $0,282828\dots$. Unga mos ratsional sonni a orqali belgilaymiz, u holda $a = 0,282828\dots$. Bu tenglikning ikkala tomonini 100 ga ko'paytiramiz:

$100 \cdot a = 28,2828\dots$ yoki $100a = 28 + 0,2828\dots = 28 + a$, $100a = 28 + a$

tenglamani yechamiz va $a = \frac{28}{99}$ ni topamiz. Bu kasr qisqarmas.

Umuman, sof davriy cheksiz o'nli kasr shunday oddiy kasrga tengki, uning surati davrga teng, maxraji esa kasr davrida nechta raqam bo'lsa, shuncha to'qqizdan iborat.

Misol. $0,8(61)$ ni o'nli kasrga aylantiring.

Yechish. Aralash davriy kasr $0,8(61)$, ya'ni $0,86161\dots$ berilgan bo'lsin. Unga mos ratsional sonni a orqali belgilaymiz, u holda $a = 0,86161\dots$. Bu tenglikning ikkala qismini 10 ga ko'paytirib, $10a = 8,6161\dots$ sof davriy kasrni hosil qilamiz.

Keyingi o'zgartirishlar yuqoridagidek bajariladi. $x = 8,6161\dots$ deymiz. Bu tenglikning ikkala qismini 100 ga ko'paytiramiz: $100x = 861,6161\dots$ yoki $100x = 861 + 0,6161\dots$. Ikkala qismga 8 ni qo'shamiz: $100x + 8 = 861 + 8,6161\dots = 861 + x$ bo'lgani uchun $100 + 8 = 861 + x$ tenglamani hosil qilamiz, bundan $x = \dots$. x ning bu qiymatini $10a = 8,6161\dots$ tenglikka qo'yamiz: $10a = \dots$, bundan $a = \dots$. Umuman butun qismi 0 bo'lgan aralash davriy kasr shunday oddiy kasrga tengki, uning surati ikkinchi davrgacha yozilgan sondan birinchi davrgacha yozilgan sonning ayirmasidan, maxraji esa davrda nechta raqam bo'lsa, shuncha to'qqizdan va birinchi davrgacha nechta raqam bo'lsa, shuncha noldan iborat.

Shuni aytish kerakki, cheksiz davriy o'nli kasmi oddiy kasrga aylantiradigan bu qoidalar uncha to'g'ri emas. Ularni keltirib chiqarishda cheksiz kasrlar ustidagi amallar chekli o'nli kasrlar uchun aniqlangan qoi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Bikboyeva N. va boshqalar. Ikkinchi sinf matematika darsligi. — T.: «O'qituvchi», 2008.*
2. *Jumayev M. Bolalarda matematik tushinchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. — T.: «Ilm-Ziyo», 2009.*
3. *Jumayev M. va boshqalar. Matematika o'qitish metodikasi. — T.: «Ilm-Ziyo», 2003.*
4. *Jumayev M. Matematika o'qitish metodikasidan praktikum. — T.: «O'qituvchi», 2004.*
5. *Jumayev M. Boshlang'ich sinflarda matematikadan laboratoriya mashg'ulotlari. — T.: «Yangi asr avlodi», 2006.*
6. *Stoylava L. P., Pishkalo A. M. Boshlang'ich matematika asoslari. — T.: «O'qituvchi», 1991.*

**MATEMATIKA DARSLARIDA KO'PBURCHAKLAR MAVZUSINI
O'QITISH USULLARI****Suvonova Shaxlo Bo'stonovna***Buxoro viloyati Shofirkon tuman**37– maktab matematika fani o'qituvchisi*

Mamlakatimizni yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarishni o'z oldimizga ustuvor vazifa qilib qo'ygan ekanmiz, buni amalga oshirish uchun bizga, eng avvalo, yangi avlod kadrlari kerak. Ana shunday yuksak salohiyatli kadrlarni tarbiyalash maqsadida yurtimizning har bir hududida bittadan yangi tipdagi maktablar - Prezident maktablarini tashkil etishni rejalashtirganmiz", - dedi Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekistonning har bir hududida Prezident maktablari tashkil etiladi. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev Nukus shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvda e'lon qildi. O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatovning aytishicha, Prezidentimizning tashabbusiga ko'ra birinchi maktab Qoraqalpog'istonning Nukus shahrida tashkil etiladi. Prezident maktablari bosqichma-bosqich mamlakatimizning boshqa hududlarida ham ochiladi. Bu haqda Xalq ta'limi vazirligi Axborot xizmati xabar bermoqda. "Prezident maktablarining asosiy maqsadi mamlakatimizning har bir viloyatida iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularning rivojlanishiga kerakli sharoitlar yaratishdir", - dedi Xalq ta'limi vaziri. Uning so'zlariga ko'ra, mazkur maktab bitiruvchilari kelajakda mamlakatimiz rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shishlari kerak. Vazirning aytishicha, Prezident maktablari STEAM (Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika)) fanlarini o'qitishga ixtisoslashgan bo'ladi. Ya'ni, Prezident maktablarida yoshlarga matematika, fzika, kimyo, biologiya va axborot texnologiyalari hamda xorijiy tillar ilg'or ta'lim metodologiyalari asosida chuqur o'rgatiladi. **“Kamalak” usuli .**

Bu usulni biror bob yoki bo'lim yuzasidan o'tkazish mumkin. Bunda birinchi ustindagi asosiy tushunchalar har xil ranglarda beriladi. Jadvalning qolgan qismlarida so'zlar aralash yozilgan bo'ladi. O'quvchilar ushbu tushunchalarni asosiy tushuncha ranglariga mos ranglarda ifodalashlari shart. Bunda jadval bo'yatiladi yoki yopishuvchi rangdor qog'ozlar to'plamidan foydalanib to'ldiriladi. Bu usulning afzalligi shundan iboratki, bir paytning o'zida 9 nafar o'quvchining bilimi sinab ko'riladi.

Dastlabki holati			
1 - topshiriq	Ko'pburchak	Paralelogramm	To'g'ri to'rtburchak
2 - topshiriq	To'g'ri to'rtburchakning diagonalari o'zaro teng.	Qavariq n burchak ichki burchaklarining yig'indisi $180^\circ (n - 2)$ ga teng, bunda n — tomonlar soni.	Agar to'rtburchakning diagonalari kesishsa va kesishish nuqtasida teng ikkiga bo'linsa, bu to'rtburchak
3 topshiriq	360	180	120

Tasvior holati

Topshiriq javoblari albatta tahlil qilinadi. Noto'g'ri belgilangan tushunchalar to'g'rilanadi. Bu topshiriqni to'g'ri bajarigan o'quvchilar bir ballni qo'lga kiritishadi.

"Pochta qutisi" usuli.

Bu usulni guruhlarda ham, kichik juftliklarda ham qo'llash mumkin. Bunda o'quvchilarga turli mavzular yuzasidan aralash atama va tushunchalar aralash holatda beriladi. Pochta qutisi berilgandan so'ng o'quvchilarga quti ichidagi so'z yoki atamalarni mos tarzda ajratishi aytiladi. Topshiriqni bajarish uchun so'zlar soniga qarab vaqt beriladi.



- 1) To'gri tortburchak 2) Paralelogramm 3) Romb
- 4)Ko'pburchaklar 5) Kvadrat

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. Monografiya Toshkent ,2003.
2. Asqarov I.R., To`xtaboyev N.X., G`ofurov K.G. 9-sinf uchun darslik. Toshkent. 2019

**PISA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARIDA MATEMATIKADAN
BERILGAN TOPSHIRIQLAR TAHLILI. PISA TAJRIBASI.****Mattiyeva Nargiza Maqsudovna***Xorazm viloyati Urganch shahar
2-maktab Matematika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada PISA tadqiqotlari haqida umumiy ma'lumotlar va topshiriqlardan namunalar bayon etilgan.*

Tayanch iboralar: *Pisa, xalqaro tadqiqotlar, integratsiya, matematik, tabiiy-ilmiy fanlar, o'qish savodxonligi*

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi:

Mazkur tadqiqotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi o'quvchilarning savodxonlik darajalari ilk bor sinab ko'rilar ekan, bunga o'ta mas'uliyat bilan tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. Buning uchun, xalqaro tadqiqotlar talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tajriba sinovlar o'tkazish, o'quv jarayonlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilib borish orqali o'quvchilarda maxsus ko'nikmalarni rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, umumta'lim muassasalari rahbarlari, pedagoglar, o'quvchilar foydalanishlari maqsadida o'quvchilarning matematik, tabiiy-ilmiy fanlar va o'qish savodxonligini baholashga qaratilgan topshiriqlar tarjima qilindi va quyida namunalar keltirildi. Mazkur topshiriqlar o'quvchilarning savodxonlik darajalarini baholashga mo'ljallangan bo'lib, undan pedagoglar, ota-onalar va o'quvchilar mustaqil foydalanishlari mumkin. .

FERRIS CHARXPALAGI

Daryo qirg'og'ida ulkan Ferris charxpalagi o'rnatilgan. Quyidagi rasm va chizmaga qarang. Ulkan charxpalakning tashqi diametri 140 metrga, uning daryo tubidan to cho'qqisigacha bo'lgan balandligi esa 150 metrga teng. U strelka yo'nalishi bo'ylab, yuqoridagi rasmda tasvirlanganidek aylanadi.

1-savol: Charxpalakning markazi M bilan belgilangan. Daryo tubidan charxpalakning markaziM gacha necha metr?

Javob: _____ m

2-savol: Ferris charxpalagi doimiy tezlik bilan aylanadi. U taxminan 40 daqiqada bir marta to`liq aylanib chiqadi. Jasur charxpalakning chiqish joyidan, charxpalakka o`tirdi. 30 daqiqadan so`ng Jasur charxpalakning qaysi nuqtasida bo`ladi?

- A. R nuqtada
- B. R va S nuqtadalar oralig`ida
- C. S nuqtada
- D. S va P nuqtadalar oralig`ida

FUDZIYAMA TOG`IGA CHIQISH

Fudziyama tog`i Yaponiyadagi mashhur uyqudagi vulqon deb hisoblanadi. **1-savol:** Har-yili faqatgina 1 iyuldan 27 avgustga qadar keng xalq ommasi uchun Fudziyama tog`iga chiqishga ruxsat beriladi. Ayni shu vaqt mobaynida taxminan 200 000 odam Fudziyama tog`iga ko`tariladi. O`rtacha har kuni nechta odam Fudziyama tog`iga ko`tariladi?

- A. 340 ta odam
- B. 710 ta odam
- C. 3400 ta odam
- D. 7100 ta odam
- E. 7400 ta odam

2-savol: Fudziyama tog`iga olib chiqadigan Gotemba soqmog`ining umumiy uzunligi taxminan 9 kilometrga teng. Sayohatchilar 18 km yurganlaridan so`ng soat 20:00 da yana qaytib kelishlari kerak bo`ladi. Toshpo`lat o`rtacha bir soatda 1,5 km yo`l bosib, toqqa ko`tarilishini va tog`dan u bundan ikki marta katta tezlik bilan tushishini taxmin qildi. Shuningdek, ovqatlanish va dam olish uchun vaqti qolishini mo`ljalladi.

Toshpo`latning toqqa chiqish va tushish tezliklaridan foydalanib, soat 20:00 da qaytishi uchun u sayohatini uzog`i bilan qachon boshlashi kerakligini aniqlang.

3-savol: Toshpo`lat Gotemba soqmog`i boy`lab ko`tarilishidan oldin o`zi bilan qadam hisoblagich oldi. U yuqoriga chiqquncha qadam hisoblagich 22500 qadam bosganini ko`rsatdi. Toshpo`lat 9 kilometrlik Gotemba soqmog`i boy`lab ko`tarilishida uning o`rtacha qadam uzunligini aniqlang. Javobingizni santimetrlarda ifodalang.

Javob: sm

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T.,2003.
- 2.Tolipov.O`., Usmonboeva.M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005.

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA TO'RT XONALI SONLARNI O'QITISH METODIKASI**Raxmatova Shoxista Baxodir qizi***Navoiy viloyati Navoiy shahri**16- AFCHO'I maktabining**Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada boshlang'ich sinif matematika darslarida to'rt xonali sonlar ustida amallar bajarish jarayonida o'quvchilarning tasavvurlarini to'g'ri shakllantirish xususida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *mantiqiy, matematika, ko'rgazmalilik, predmet, xususiyat, to'rt xonali*

Matematika bolalarda tafakkur, diqqat, xotira, ijodiy tasavvur etish, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek, matematika o'quvchilarning mantiqiy fikrlash malakalarini oshirishi, ularning o'z fikrlarini aniq, to'g'ri va tushunarli bayon etishi uchun zamin hozirlaydi. O'qituvchining vazifasi — bolalarga matematikani o'qitishda bu imkoniyatlardan samarali foydalana olishdan iborat.

Matematika darsliklarda ko'p xonali sonlarni alohida qilib berilishiga sabab, 1000 dan katta sonlarni nomerlashning o'ziga xos xususiyatlari bor: to'rt xonali sonlar faqat xona tushunchasiga emas, balki sinflar tushunchasiga ham tayanib hosil qilinadi, nomlanadi, yoziladi. Bu muhim tushunchani ochib berish kerak. Masalalarni qarab chiqish tartibi quyidagicha: nomerlash, yozma qo'shish va ayirish, yozma ko'paytirish va bo'lish. Ishning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, ko'rsatilgan barcha masalalarni o'rganishda o'qituvchi o'quvchilar o'qitishning bundan ilgarigi bosqichlarida hisoblash sistemalari, natural sonlar qatori, arifmetik amallar, ularning xossalari, amallar orasidagi o'zaro bog'lanish, komponentlar o'zgarganda natijalarning o'zgarishiga nisbatan to'plagan kuzatishlari va ayrim xulosalarini umumlashtirishga erishadi. Bu bilimlar to'rt xonali sonlarni o'qish va yozish, og'zaki va yozma hisoblashlarni bajarish o'quv va malakalarini hisoblash uchun asos bo'ladi.

1000 dan katta sonlarni nomerlashni o'rganish o'ziga xos xususiyatga ega. Bundan oldingi barcha sonlarni o'rganishda o'rinli bo'lgan predmetlarni bevosita sanashga asoslangan holda to'rt xonali sonlarni hosil qilish, ularni og'zaki nomerlash mumkin emas. Predmet ko'rgazmalilikni shartli ko'rgazmalilikka almashtirishga to'g'ri keladi: son cho'tga solinadi yoki nomerlash jadvalida belgilanadi. Ikkala holda ham ko'rgazmalilik sonni hosil qilish va belgilashni namoyish etadi va shartlilik elementiga ega bo'ladi: cho'tdagi bir xil soqqalar, ayni bir xil raqamlar cho'tda va nomerlash jadvalida joylashishiga qarab yozuvda har xil sonni bildiradi (masalan, 3333 soni va 3 birlik, 3 o'nlik, 3 yuzlik va hokazo). Darsda ko'rgazmali vositalardan foydalanayotganda buni xisobga olish zarur.

Ikkinchi o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, 1000 dan katta sonlarni nomerlash birliklarni ikki yoklama guruhlashga asoslanadi: quyi xonaning 10 birligi undan keyingi yuqori xonaning 1 birligini tashkil etadi, quyi sinfning 1000 birligi undan keyingi yuqori sinfning 1 birligini tashkil etadi. II sinf birligi — ming va bu birliklar bilan ularni I sinf birliklari kabi o'nliklarga, yuzliklarga, mingliklarga guruhlab sodda birliklar kabi sanash mumkin. To'rt xonali sonlar turli sinflar birliklarini sanash natijasida hosil bo'ladi, shuning uchun ular sinflar bo'yicha o'qiladi va yoziladi. Har bir sinf ichida esa sonning hosil qilinishi, atalishi va yozilishi 1000 ichida sonlarni hosil qilish, atash va yozishdagi kabi amalga oshiriladi. Masalan, agar minglarni sanab 115 ni, keyin birlarni sanab 125 ni hosil qilsak, 115125 soni hosil bo'ladi. Birliklarni sinflar bo'yicha guruhlashning mavjudligi ko'p xonali sonlarni nomerlashni o'rganish tartibiga ma'lum iz qoldiradi: bolalarni bir yo'la minglar sinfining uchta xona birliklari bilan tanishtirish maqsadga muvofiq, bunda bu birliklarning hosil bo'lishi va atalishi I sinf birliklarining hosil bo'lishi va atalishi bilan o'xshash ekanini ta'kidlash kerak; so'ngra II sinf xona sonlarining hosil bo'lishi va yozilishini (5 ming, 20 ming, 600 ming) va II sinf birliklaridan tuzilgan sinf sonlari (25 ming, 320 ming, 761 ming)ni (ya'ni yaxlit mingliklarni) qarash va nihoya to'rt xonali, besh xonali va olti xonali sonlarni nomerlashni o'rganishga kirishish kerak. Bu yerda sanoq sistemasining g'oyasi o'z aksini topadi: mingliklar xuddi oddiy birliklar kabi sanaladi, ko'p xonali sonlarni nomerlashni o'rganish esa mazkur holda 1000 ichida nomerlashga doir bilimlarga tayanadi.

Sonlarni yozish va o'qish uchun tarbiyada bebaho hisoblangan vaqtli matbuotdan olingan bilishga oid sonli materiallardan foydalanish zarur. Sonli materiallarni to'plashga o'quvchilarning o'zlarini ham jalb etish foydalidir. 1000 ichida sonlarning natural ketma-ketligi haqida to'g'ri tasavvurlarni shakllantirish maqsadida dastlabki darslarning o'zidayoq ma'lum bo'lgan bittalab, o'ntalab, yuztalab qo'shishga (ayirishga) doir, berilgan songa nisbatan undan bevosita oldin va bevosita keyin keluvchi sonlarni aniqlashga doir, ± 1 ko'rinishdagi misollarga doir, barcha to'rt xonali sonlar ichidan eng kattasini va eng kichigini aniqlashga doir mashqlarni kiritish kerak.

To'rt xonali sonlarni nomerlashni o'rganishga doir tayyorgarlik ishlarini ancha ilgari boshlash kerak. Bunda o'qituvchi ikkita maqsadni ko'zda tutishi zarur: birinchidan, o'quvchilarning bundan oldingi sonlarni nomerlashni qarashda olgan bilimlarini mustahkamlashga, ikkinchidan, o'quvchilarda yangi mavzuga doir ma'lum maqsadni shakllantirish va qiziqish uyg'otishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshmurodov B. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishni takomillashtirish T.: O'qituvchi, 2000 yil

2. Jumayev M. E. Matematika o'qitish metodikasidan praktikum T.: O'qituvchi 2004 yil

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING
AHAMIYATI, MAQSAD VA VAZIFALARI****Razzoqova Nargiza Olim qizi****Ikromova Gulmira Hasan qizi***Navoiy viloyati Karmana tumani**10-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari*

Annotatsiya: *Bugungi kunda o'quvchilarda hisob-kitob ko'nikmalarini shakllantirish, ularni kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish boshlang'ich ta'limdagi matematika fani o'qituvchilarining asosiy vazifalardan biridir. Shu bois, ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika fanini o'qitishning ahamiyati, maqsad va vazifalariga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar: *intellekt, tartib-intizom, fanlar integratsiyasi, umumiy kompetensiya, kognitiv kompetensiya.*

Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikni ta'minlaydi va tafakkurini kengaytiradi. Matematika olamni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berish, ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'limning matematika fani o'quv dasturi o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzildi.

Boshlang'ich ta'limda matematika fanini o'qitishning asosiy maqsadi:

✓ o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

✓ jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

✓ milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Boshlang'ich ta'limda matematika fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

➤ o'quvchilar tomonidan matematik tushunchalar, xossalar, shakllar, usullar va algoritmlar haqidagi bilim, ko'nikmalar egallanishini ta'minlash;

➤ inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llashga o'rgatish;

➤ o'quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish;

➤ fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o'quvchilarda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, kreativlikni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirishdan iborat.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida amaliy-tajriba va sinov mashqlari sifatida kundalik faoliyatda shaxsiy, oilaviy va iqtisodiy vaziyatlarga, jumladan, tejamkorlikka, mehnatni yengillashtirishga va unumdorligini oshirishga, savdo-sotiq bilan bog'liq bo'lgan masalalar yechilishi lozim.

Matematika o'quv fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablari

1. Matematika mazmuniga oid umumiy kompetensiya:

A1

1. berilgan sonlarni va eng sodda kasrlarni o'qiydi, yozadi, taqqoslay oladi, tartibga solib, turli ko'rinishlarda tasvirlay oladi;

2. sodda sonli ifodaning qiymatini og'zaki va yozma hisoblay oladi;

3. sodda amaliy, matnli va mantiqiy masalalarni yecha oladi;

2. Kognitiv kompetensiya (shaxsning mustaqil ijodiy fikrlashi)

A1

1. ma'lum matematik faktlar va sodda mantiqiy qonunlar asosida xulosa keltirib chiqara oladi, rost va yolg'on tasdiqlarni farqlay oladi;

2. zarur hollarda sodda hisoblash vositalarini qo'llay oladi;

3. o'qituvchi bilan hamkorlikda masalaning yechimini topish rejasini tuza oladi, tuzilgan reja asosida ishlay oladi va o'z faoliyatini to'g'rilay oladi; Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika fanidan bilim berish ularning tejamkorlik, hisob-kitob, matematik fikrlay olish qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.ziynet.uz

2. Matematika. 4-sinflar uchun darslik. Toshkent-2013-y.

3. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. kutubxona.adu.uz

**БОШЛАНҒИЧ МАТЕМАТИК ТАЪЛИМГА УСЛУБИЙ
ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ МОҲИЯТЛИ ИННОВАЦИЯЛАР
КЎРИНИШИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ.**

Абдусаматов Алишер Собирович

Термиз давлат университети

“Бошланғич таълим кафедраси” ўқитувчиси

Математика фани бўйича режалаштирилган янги натижаларда “билим” факторидан кўра “топиш”, “кашф этиш” фактори муҳимроқ саналади. Тадқиқотларнинг кўрсатишича, “юқори билим олиш” ўқувчининг “ўзи англаб етган” тушунчаларга нисбатан самараси камроқ бўлади. Услубий инновацияларни амалиётга татбиқ этишда миллий таълим тизимининг фундаментал негизини ҳосил қилувчи ўрта таълимни ўргатишни йўлга қўйиш тавсия қилинади. Бу омил фанлараро алоқалар орқали таҳсил олувчиларнинг кўпроқ билим олишларини таъминлайди.

Бошланғич математикани ўқитишда услубий инновацияларни кенг қўллаш самарадорлиги математика фани бўйича янги дарсликлар яратишнинг анъаналари ва тажрибаларига бевосита дахлдор. Янги дарсликлар кўп ахборот беришни эмас, ўқувчининг ўзи ахборот топишини таъминланиши керак. Яъни математик тушунча мавзунинг ичидан “топиш олиниши”, ўқувчи томонидан “кашф қилиниши” муҳимдир. Бошланғич математика ўқитишда қўлланилаётган инновацияларнинг янги жорий этилаётган инновациялардан фарқланиш даражасини кўрсатувчи қуйидаги омиллар мавжуд:

-вақт фактори: унга кўра ўқувчи етарлича қисқа вақт ичида режалаштирилган мавзу бўйича тасаввурга эга бўлиши, мазкур мавзу атрофида мулоҳаза қила олишни ўрганишини таъминлаш;

-техник таъминланганлик фактори: унга мувофиқ, дарс жараёнини ташкил этишда ўқитувчининг иштирокини одатдаги технологияларга қараганда 5-7 фоизгача камайтириш;

-баҳолаш фактори: бунда ўқитувчи болаларни мулоҳаза жараёнидаги фаолликларига, билиш учун фикрлар қобилиятларига қараб баҳолайди.

Тадқиқотлар натижасига кўра, услубий инновацияларнинг моҳиятли тури қуйидаги кўринишларда бўлади:

– Математик мазмун ва унинг ҳажмини қуриш мантиғининг ўзгариши. Бу кўринишдаги инновациялар мавзуларни бошқачароқ тарзда қайта гуруҳлаш, “олдинга интилувчи таълим”, муайян мавзу бўйича ўқув материалларининг кенгайтириб борилиши, муайян мавзу бўйича ўқув материалларининг қисқартириб борилиши, математика бўйича Намунавий дастурнинг янги бўлим билан тўлдирилиши, янги мавзуларнинг қўшиб борилиши, муаллифлик дастурларининг тўлдириб борилиши, математика ўқув фанининг янгиликлари билан тўлдириб бориладиган қўлланмалардан фойдаланиб бориш, ўқув дастурига путур етказмаган

ҳолда айрим мавзулардан воз кечиш каби БТДТС талаблари асосидаги амалий тадбирлар қўлланилади.

– Бошланғич математик таълим мундарижасининг таркибий қисмига бўладиган ёндашувларни умумлаштириш ва универсаллаштириш. Услубий инновациялар моҳиятли турининг ушбу кўриниши асосан, амалий кўриниш касб этади. Бунда математик тушунчанинг ўқувчи томонидан қабул қилинишига эътибор қаратилади. Математик тушунча тўлиқ ўзлаштирилгандан сўнг мазкур тушунча иштирокидаги мисол ва масалалар ечиш амалиёти мазкур инновациянинг асосий қисмини ташкил қилади. Ўқитувчи кичик ёшдаги ўқувчиларнинг тасаввурларига мос таҳлил талаб масалалар тизимини ишлаб чиқиши керак. Ечилиши талаб қилинган мисолнинг матни шундай тузилиши керакки, унда кичик ёшли ўқувчиларга нотаниш сўзлар ёки тушунчалардан битта ҳам бўлмаслиги керак. Ўқувчилар фаолиятини баҳолаш мезонида мисол ва масалаларнинг тўғри ечими қаторида ўқувчининг фикрлаш тарзи, таҳлил миқёслари ҳам тўлиқ ҳисобга олиниши лозим.

– БТДТС талабларига асосланган таълим УЎА доирасидаги математик дастурдаги математик топшириқларда тасвир усуллари ва матнларининг ўзгариб бориши. Услубий инновациялар моҳиятли турининг ушбу кўриниши ўқувчида ўзига нисбатан ишонч ҳиссини шакллантиришни асосий мақсад қилиб қўяди. Кичик ёшли ўқувчиларга математик топшириқ бериш давомида ўқитувчи онгли тарзда масалаларнинг шартини бошқачароқ тарзда баён қилади. Берилган математик топшириқда масала шарти нимадан иборат ва нимани топиш талаб қилинаётганлигини аниқлаш ўқувчининг ўзига ҳавола қилади. Тажрибали ўқитувчилар амалиётида айнан битта математик мисолнинг турли талқинларда баён қилинган фактлар учрайди. Фақат мантиқан фикрлашга, масалаларнинг моҳиятини таҳлил қилишга уринган ўқувчиларгина ўқитувчи мақсадини аниқ топганлиги қайд этилган. Ушбу инновацияга ўхшаш услублар ўтган асрнинг 90-йилларида ҳам айрим ўқитувчилар томонидан қўлланилган. Хусусан, ҳар бир математика фани ўқитувчиси математик топшириқ бериб, ўзи намуна сифатида ишлаб кўрсатган ва мазкур масалани ечишнинг бошқа усуллари топишни ўқувчиларнинг ўзларига ҳавола қилган. Бу усулнинг такомиллашган кўринишлари ҳалигача педагогик амалиётда муваффақият билан қўллаб келинади.

Бошланғич математик таълимнинг шахсга йўналтирилганлик моҳияти ва унинг осонлаштирилиши. УЎА ва кўп йиллик фаолиятлардан ҳосил бўлган тажриба қўшилганлиги сабабли “Таълимнинг моҳияти” деган тушунчанинг қабул қилиниш даражаси қийинлашади. БТДТС талаблари асосида ишлаб чиқилган услубий инновацияларни амалиётга кенг жорий этиш учун “таълим моҳияти” тушунчаси кенг маънода ўқитувчилар томонидан қабул қилиниши лозим.

Ана шу эҳтиёждан келиб чиқиб, услубий инновациянинг мазкур кўриниши ишлаб чиқилган ва тасвир қилинган. Инновациянинг ушбу кўриниши «Ўзбекистон Республикаси умумий ўрта таълим тизимининг фундаментал негизини ҳосил қилувчи таълимнинг мазмун-моҳияти»га тўлиқ мос келиши ҳамда унда УЎА замонавий таълимнинг асосий моҳиятини ифодалаш кўрсатиб ўтилгани билан аҳамиятлидир.

Шунингдек, услубий инновациянинг мазкур кўринишида ўқув фани бўйича натижаларга қўйилган янги талаблар ҳам ўз ифодасини топган.

Ушбу инновацияда асосий ўрин тутадиган факторлардан бири ўқув фани бўйича янгиланган талабларнинг мавжудлигидир. Яъни, таълимнинг анъанавий усулларида асосий саналадиган билим ва маҳорат факторларидан ташқари ўқувчининг “дунё илмий муҳитининг асосини ташкил этадиган илмий билимларнинг негизини англашга бўлган интилиши, янги билимларни олиш лаёқати, муайян ўқув фанига хос бўлган бўлган фаолият турларини идрок этиш” [48,с.2] бўйича тажрибаси ҳам ҳисобга олинади. Бошланғич математик таълимнинг моҳиятини ўрганишга бўлган ёндашувларнинг универсаллашув томонга ўзгариб туриши (муайян бир фанга нисбатан хусусий ёндашувнинг умумий ёндашувга айланиши, тушунчаларнинг мазмун-моҳиятини, математик масалаларни ечишни ўрганишга бўлган ёндашувнинг универсаллашуви) шахсга йўналтирилганлик асосига ишлаб чиқилган инновацияларнинг негизини ташкил этади. Масалан, математиканинг бошланғич курсларида фаннинг мундарижаси тушунчаларни англаш ва шу асосда масалалар ечиш каби жараёнларни ўз ичига олади. Фаннинг моҳиятини фақат шундан иборат деб билиш хусусий ёндашувдир. Бошланғич курсларда математика фанининг мундарижасини тушунишга йўналтирилган умумлашган ва универсаллашган ёндашув эса иккита асосий турга бўлинади. Улар қуйидагилардир:

-бошланғич математиканинг асосий тушунчаларига йўналтирилган умумий универсаллашган ёндашув;

-бошланғич математика фанидаги матнли масалаларни ечишга йўналтирилган умумий универсаллашган ёндашув.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мордкович А.Г. Беседы с учителями математики: Учеб.-метод. Пособие/ А.Г. Мордкович. – 2-е изд., доп. И перераб. – М.: ООО «Издательство Оникс»: ООО «Издательство «Мир и Образование», 2008. – 336с.

2. Фундаментальное ядро содержания общего образования. Проект. (2009-2010) . – М.: Просвещение, 2010 – 48 с.

3. Ягодин Д.В. Экономический аспект инноваций в образовании –
URL: http://www.yvspu.yar.ru/vestnik/uchenu_e_praktikam/35_2

TABIY VA TEXNIK FANLAR

GEOGRAFIYA DARSLARIDA AMALIY ISHLAR O'QUVCHI FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILIDIR.

Amonov Sherali Abdihalimovich

Navoiy viloyati Xatirchi tumani

44- umumta'lim maktabining

Geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada geografiya darslarida amaliy ishlarni tashkil qilish orqali darsda kutilgan natijaga erishish mumkinligi xususida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Amaliy, geografiya, ta'lim, topshiriq*

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilar geografiya fanini o'rganar ekanlar, o'zlari hali bilib ulgurmagan hodisalar bilan tanishadilar va ularning mohiyatini tushunib yetadilar. Maktab geografiyasining ta'limiy vazifasi – umumiy ta'limning tarkibiy qismi bo'lgan geografiya fani asoslarini o'quvchilar puxta egallab olishlarini ta'minlashdan, o'quvchilarni hayotda zarur bo'lgan va bevosita tadbiiq eta oladiigan zarur ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iboratdir.

Geografiya kurslarida amaliy ishlar asosan o'quvchilarning bilim faoliyatidan iborat bo'ladi. O'quvchilar o'qituvchi topshirig'ini bajaradi, ilgari egallangan bilimlarini qo'llaydilar va sistemaga soladilar. Bu usulda o'quvchilar yangi bilimlarni ham egallaydilar.

Sinfda amaliy ishlarni uyushtirish samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchilardagi bilim va ko'nikmalar zaxirasiga bog'liq. Topshiriqlarni aniq berish, ularni doskada va daftarda, alohida kartochkalarda aks ettirish amaliy ishlarning samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Ta'lim jarayoniga amaliy ishlarni kiritish didaktik talablarga javob b yerishi

kyerak. Yangi matyerialni o'rganishda amaliy ishlar samarasi birmuncha past bo'lishi tadqiqot va tajribalarda isbotlangan. Bilimlarni mustahkasmlash va tekshirishda esa ularni qo'llash ko'proq foyda beradi.

Amaliy ishlarni tashkil qilish o'ziga xos bo'lib, uni faqat o'tilgan darsni mustahkamlash chog'ida uyushtirish maqsadga muvofiq. Didaktik olim I. T. Ogorodnikov o'tilgan darsni mustahkamlashda o'quvchilar amaliy ishlarini uyushtirishning 5 ta yo'lini ilgari suradi.

1. O'qituvchi dastur va darslik asosida butun materialni bayon qiladi, o'quvchilar esa ularni esda saqlaydi, mustahkamlaydi. Uyda ham o'quvchilar matyerialni takrorlaydilar.

2. Dars mazmunini o'qituvchi qisqacha kirish so'zi bilan tushuntiradi, uni egallash yo'llarini uqtiradi. O'qituvchi o'quvchilar amaliy ishlariga rahbarlik qiladi.

3. O'qituvchi faqat asosiy matyerialni bayon qiladi. O'quvchilar qolgan butun matyerialni amaliy o'rganadilar.

4. Dars o'qituvchining yangi matyerialni bayon qilishi bilan emas, balki oldindan tayyorlangan o'quvchilarning axborotlari bilan boshlanadi. Ayniqsa, geografiya o'qitishda bu usulni keng qo'llasa bo'ladi.

5. O'qituvchi o'quvchilar amaliy ishlariga rahbarlik qiladi, xolos. O'quvchilar asosan bilimlarni amaliy egallaydilar. Bu usullar yordamida o'qituvchi darsda o'quvchilar amaliy ishlarini tashkil qilishning samarali usullarini topadi, izlaydi va maqbul dars strukturasi topadi.

Yuqoridagilarni tahlil qilgan holda geografiya ta'limida o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini uyg'unlashtirishga yordam beradigan dars strukturasi topish maqsadga muvofiq. Shularni e'tiborga olib yangi matyerialni bayon qilishda amaliy ishlarni 3 xil usulda uyushtirish maqsadga muvofiq.

1. O'qituvchi yangi matyerialni bayon qiladi, o'quvchilar esa uni mashqlar orqali amaliy egallaydi.

2. O'qituvchi yangi matyerialning bir qismini bayon qiladi, materialning qolgan qismini o'quvchilar o'qituvchi ko'rsatmasi asosida amaliy egallaydilar.

3. O'qituvchi topshiriqni qo'yadi, uni yechish yo'llarini ko'rsatadi, o'quvchilar esa uni amaliy bajaradilar.

Amaliy ishlarni tashkil qilishning turlariga to'xtalsak, birinchi tur o'quvchilarni umumlashgan tayyor ilmiy bilimlar bilan qurollantiradi. Ommaviy maktablar tajribalarini kuzatish orqali shunday xulosaga kelish mumkin, o'qituvchi yangi materialni o'zi bayon qiladi, bunda u o'quvchilardagi qisman bo'lsa ham mavjud bilimlarni e'tiborga olmaydi. O'qituvchi materialning o'quvchilar tomonidan qanchalik o'zlashtirilganligini bilmaydi.

Keyingi yillarda ko'pchilik metodistlar, ilg'or o'qituvchilar, o'qituvchi tomonidan yangi matyerialni bayon qilishda o'quvchilar bilish faoliyatini faollashtirishga katta e'tibor qaratmoqdalar. Ular yangi matyerialni o'tish paytida amaliy ishlarni tashkil qilishni taklif qilmoqdalar. Bunday amaliy ishlarni uyushtirish T. M. G yerasimov, V. A. Koronskaya, G. P. Asanova, tadqiqotlarida o'z aksini topdi. Ilg'or tajribalarni o'rganish orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, darsda o'quvchilarning amaliy ishlarini tashkil qilishi fanni yanada chuqurroq o'rganishi va o'qituvchining darsda ko'zlangan maqsadga erishishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.H. Kalonov, A. T. Hayitov, L. H. Yerdonov —O'zbekiston geografiyasini maktabda o'rganishl. Qarshi. —Nasafll. 2004 y.

2. —Kasbiy malaka va pedogogik mahoratl Toshkent – 2009

BIOLOGIYANI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH YO'LLARI.**Aslonova Sarvinoz Orif qizi***Navoiy viloyat Navoiy shahr**7 –umumiy o'rta ta'lim maktabi**Biologiya o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Biologiya darslarida o'quvchilarning bilish faoliyati yalpi o'qitishni individual va kichik guruhlarda ishlash shakllari bilan uyg'unlashtirilganda juda yuqori samara beradi.*

Kalit so'zlar: *Aqliy hujum, didaktik o'yinlar, taqdimot, individual, rivojlantiruvchi, ta'limiy, tarbiyaviy, organik olam, ta'lim mazmuni, metod.*

Ta'lim jarayonida o'quvchi o'qituvchining bevosita rahbarligida, ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida organik olamning qonuniyatlari, hodisa va voqealarning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar uchun o'quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o'qitishdan ko'zda tutilgan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi. O'qituvchi uchun ta'lim jarayoni o'quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog'langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o'zgartirishlar kiritadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi. Darsda o'quvchilarning bilish faoliyati va o'qituvchining pedagogik faoliyati bir-biriga uyg'un ravishda tashkil etilgandagina o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish dars strukturasi asosini tashkil etadi. Shu sababli bu masalani chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini individual tarzda tashkil etish asosan darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ham foydalaniladi. Masalan, o'quvchilarning uy vazifasini bajarishida ularga tafovutlab yondashish imkoniyatlari mavjud. O'quvchilarga muayyan mavzular bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazish, ma'ruza va referatlar va turli mavzularda o'tkaziladigan tanlovlar uchun materiallar tayyorlash shular jumlasidandir. Ta'lim-tarbiya jarayonida darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni e'tiborga olingan holda darsda o'quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil ishlashi, o'quv bahslar tashkil etish, aqliy hujum, didaktik o'yinlar, taqdimot, o'z-o'zini baholash, tashrif kabilardan foydalanish, masala va mashqlar yechishni yo'lga qo'yish o'qituvchining diqqat markazida bo'lmog'i lozim. O'quvchilarning bilish faoliyati kichik guruhlarda tashkil etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: • darsda vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni hal etish yo'llarini belgilash; • o'quv topshiriqlarining didaktik maqsadi, bajariladigan topshiriqlar bilan tanishish; • kichik guruh a'zolari bilan hamkorlikda maqsadni amalga oshirish yo'llarini loyihalash, mustaqil ishlarni tashkil etish; • o'rganilayotgan obyektning avval o'rganilgan obyektlar bilan taqqoslash; • natijalarni loyihalash va uning maqsadga

muvofigligini tekshirish; • natijani tahlil qilish, tegishli hollarda unga o'zgartirishlar kiritish. Biologiyani o'qitishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining barcha metodlaridan, modulli ta'lim texnologiyasining o'quvchilarning kichik guruhlarda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlaridan foydalanish shular jumlasiga kiradi. Hamkorlikda o'qitishning kichik guruhlarda o'qitish metodida yalpi o'qitish kichik guruhlar bilan, «arra» metodida esa, o'quvchilarni avval individual tarzda, so'ngra kichik guruhlarda o'qitish uyg'unlashtiriladi. Biologiya darslarida o'rganilayotgan mavzuning didaktik maqsadi, vazifalari, mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarning bilish faoliyati individual, kichik guruhlarda va yalpi holda tashkil etish shakllaridan o'z o'rnida va samarali foydalanish tavsiya etiladi. Shunday qilib, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, mazkur faoliyatni maqsadga muvofiq tashkil etish, uni loyihalash, maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilash, olingan natijani tahlil qilish va baholash bosqichlaridan iborat bo'ladi. Hozirgi zamon ta'lim-tarbiya jarayonida o'z hukmronligini saqlab kelayotgan an'anaviy ta'lim, o'quvchilarni yalpi o'qitishni va o'quvchilarning bilish faoliyati passiv tinglovchi sifatida tashkil etishni nazarda tutadi. O'qitish ishlarini tashkil etishda o'rta saviyali o'quvchi nazarda tutiladi, o'quvchilarning mustaqilligi e'tibordan chetda qoladi, o'quv faoliyati o'qituvchi tomonidan boshqariladi. Shu sababli o'quvchilarni o'z o'quv faoliyatining to'laqonli subyektiga aylantirish, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, o'qitish samaradorligini orttirish maqsadida biologiyani o'qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarurati tug'ildi. Biologiyani o'rganishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun darsning o'quvchilarning o'tgan mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, ularni tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o'rganish jarayonida lokal texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov. Biologiya ta'limi texnologiyalari. — T.: O'qituvchi, 2002
2. Azimov va boshqalar. Biologiya. Metodik qo'llanma. — T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi Tibbiyot nashriyoti. 2002
3. www.ziyouz.com

**BITIRUVCHI SINFLARDA FIZIKA O'QITISHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI****Avliyoxonova Madinaxon Nabixon Qizi***Namangan viloyati Chust tumani**68-umumiy o'rta ta'lim maktabi**fizika fani mutaxassis o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fizika fanidan o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi, murakkab bo'lgan mavzularni o'tishdagi o'ziga xos dasturlar asosida qo'llash texnologiyalari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *mexanika, metodik, seminar, dialektik, ob'ektiv.*

Bitiruvchi ya'ni IX- va XII-sinflarda barcha predmetlarni o'qitishda ularga bog'liq bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak. Birinchidan, IX-sinf o'quvchilarning yosh xususiyatlari ga e'tibor beriladi. Ikkinchidan, olamning ilmiy manzarasini shakllantirishga tegishli umumlashtirish va unga xos bo'lgan mazmunan hamda mantiqan yakunlashuv hisobga olinadi. Uchinchidan, bitiruvchilarning bir qismi o'rta umumiy ta'lim maktablarini bitirib, akademik litsey va kollejlarga, ikkinchi qismi, yo'nalishlar bo'yicha kollej hamda litseyllarni bitirgan o'quvchilar oliy ta'lim muassasalariga kirishlarida olgan bilimlar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Bitiruvchi sinflarga o'ziga xos mazkur xususiyatlar maktab fizika kursiga ham tegishlidir. Shu bilan birga fizika kursiga tegishli yana ikkita o'ziga xoslik mavjuddir. O'rta umumiy ta'lim maktabning bitiruvchilari 6-,7-,8-,9-sinflarda fizikaning turli bo'limlari bilan tanishadi. Albatta, bu davrda o'quvchilar mexanika kursidan to'liqroq ma'lumot oladilar. Shuningdek, o'quvchilar bu paytda kvant nazariyasi bilan ham tanishib, 10 soatga mo'ljallangan "Koinot fizikasi" deb nomlanuvchi astronomik tushunchalar bilan ham tanishib oladilar.

Fizika o'qitishda qayd etilgan o'ziga xosliklar dasturda ma'lum darajada hisobga olingan. Bunda umumlashtiruvchi mashg'ulot va imtihon oldi takrorlash uchun maxsus vaqt ajratilishi nazarda tutiladi. Biroq bular muammoni ma'lum darajada hal etadi, xolos. Bitiruvchi sinfda qayd etilgan o'ziga xosliklarni o'quv jarayoni davomida hal etish uchun o'qituvchining ijodiy ishlashi talab etiladi. Bunda quyidagi metodik usullarni tavsiya etish mumkin:

- darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlashni kuchaytirish hisobiga o'quvchilarning bilish faoliyatlarini oshirish, o'qitishning faol metodlarini qo'llashi (muammoli o'qitish, seminar, ma'ruza, umumlashtiruvchi ma'ruzalar tashkil etish, referatlar yozish va shu kabilar);

- o'rganilayotgan materialni dunyoqarash yo'nalishiga e'tiborni kuchaytirish: falsafiy umumlashtirishlar, ilmiy bilish metodlarini namoyon qilish, olamni o'rganishda nazariya va tajribaning roli, ilmiy nazariyalarning to'g'rilik mezonini va shu kabilar.

- olamning tabiiy-ilmiy manzarasini shakllantirishni yakun-lash va bu manzarada fizik bilimlarni yetakchi ekanini aniqlash maqsadida: matematika, astronomiya, kimyo bilan bog'lanishlarni kuchaytirish;

- fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirishda fizik bilimlar rolini muntazam ravishda ko'rsatib borish;

- o'quv materialni umumlashtirish va chuqurlashtirish, fizikaning turli bo'limlari orasidagi ichki bog'lanish hamda g'oya va metodlari generalizatsiyalashni birinchi o'ringa chiqarish maqsadida o'quv materialini muntazam ravishda takrorlashni tashkil etish.

Ta'lim jarayonini (shu jumladan fizikani o'qitishni) tashkil etish o'qitishning aniq ijtimoiy-tarixiy sharoitlariga ko'p jihatdan bog'liqdir. XX-asr oxiri XXI-asr boshlarida ta'lim sistemasining muhim masalasi; chuqur bilimli, ilmiy dunyoqarashga ega, ijtimoiy foydali mehnatga qodir va ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishdan iborat. Ijtimoiy taraqqiyot talabi, shuningdek, har bir o'quvchining individual taraqqiyoti amalda fizikadan ixtisoslik tayyorlash muammosini keng darajada hal etishga undaydi. Natijada turli bilimga ega bo'lgan o'quvchilar uchun fizik ta'lim hajmi va darajasi qat'iy holda tabaqalash-tiriladi. Malaka, ko'nikma va bilimlar yig'indisini shakllantirish o'quv qobiliyati va tarbiyaning bir-biriga bo'ysungan birmuncha umumiyroq vazifalari bilan belgilanadi. Taraqqiyot va tarbiya dunyoqarashni shakllantirishga yo'nalgan material asosida amalga oshirishni aniq tushunish kerak bo'ladi. Ushbu masalaga dasturda belgilangan fizika ta'limining xususiy masalalariga bo'ysunadi.

Avvalo, o'quvchilarning fizika ta'limi mazmunini o'zlashtira olishlari bo'yicha faoliyatlarini tashkil etish zarur. O'quvchilarning psixologik rivojlanishi va o'quv faoliyatlarining birligini hisobga olish, o'z-o'zini taraqqiy ettirish faoliyatini, uni takomillashtirishni, o'quvchilarni eng yuqori taraqqiyot bosqichiga olib chiquvchi yangi shakllari paydo bo'lishini rejalashtirishni talab qiladi. O'quv jarayonini tashkil etishga bo'lgan mazkur yondashuv faoliyat orqali taraqqiy ettirishni belgilab beradi.

Fizika o'qituvchisining vazifasi o'quvchilarda tabiatdagi hodisalarni dialektik tavsifi va moddiylik mohiyati haqidagi tasavvurlarni chuqurlashtirishdan iborat. O'quvchilar materiya va harakatning bepoyonligi, yo'q bo'lmasligi va xilma-xilligi haqida xulosa qila olishlari va quyidagi muhim holatlarning mohiyatini ochib berish lozim. Fizik hodisalarning ob'ektiv realligi; dunyoning moddiyligi; harakat-materiyaning asosiy xossasi ekanligi; fizik qonunlarning ob'ektiv tavsifdaligi tabiatni bilish mumkinligi kabilar shular jumlasiga kiradi.

Qo'llanilayotgan o'qitish metodining tarbiyaviy ahamiyati ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga, olamning yagona manzarasi haqidagi tasavvurni rivojlantirishga qo'shgan hissasi bilan belgi-lanadi. Uning ahamiyati ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga ko'mak-lashadi. Bilimlarni o'quvchilarning shaxsiy ishonchiga aylanishi-ga ham yordam beradi. O'quvchilarda hayotiy yo'nalishlarni shakllanishiga ham ko'maklashadi.

ADABIYOTLAR:

1. Bugayev A. I. *Metodika prepodovaniya fiziki v sredney shkole.* –M: Prosvesheniye, 1981.
2. Isaak N'yuton. *Matematicheskiye nachala naturalnoy filosofii.*-M :
3. Nauka,1989. 5. Razumovskiy V.G.,Xijnyakova L. S. *Sovremenno 'y urok v sredney shkole.*-M: Prosvesheniye, 1983.
4. *Dimonstratsionny ekspriment po fizike v sredney shkole. ch.1-2.* 1978.
5. Kamenskiy S.Ye., P.V. *Orexov Fizikadan masalalar yechish metodikasi.* - T: O'qituvchi, 1989.

BIRIKTIRISH DETALLARI BOLT, SHPILKA,

Muhammadiyev Elyor To'liqinovich

(TerDu, "Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi" magestranti)

Anatatsiya: Ushbu Maqolada biriktirish detallari bolt, shpilkaning maqsad-vazifalari haqida fikr yuritiladi. Biriktirish detallarini shartli belgilash. GOST 1759.0-87 tomonidan biriktirish detallarini to'liq shartli belgilash talabi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Model, chizmachilik, detal, bolt, shpilka, gost.

Rezbali biriktirish detallari. Biriktirish detallariga qo'yiladigan texnik va mexanik talablar standartlarda belgilangan. Biriktirish detallarining mexanik xususiyatlari chizmalarda ko'rinishlar, qoplamalarning shartli belgilanishi, markalash kabilar orqali belgilanadi.


Biriktirish detallarini shartli belgilash. GOST 1759.0-87 tomonidan biriktirish detallarini to'liq shartli belgilash talab qilinadi.

Masalan: Bolt A2M20x\,5-L-6gx60.5S. S.029 quyidagicha o'qiladi:

A - aniqlik turkumi; 2 - bajarilishi; M20 - metrik rezba diametri;


1,5 - rezbaning qadami; L - rezbaning yo'nalishi; 6g - rezbaning joiz o'lchami; 60 - boltning uzunligi, mm da; 58 - mustahkamlik turkumi (raqamlar orasidagi nuqta qo'yilmaydi) yoki guruhi;

S - po'latning tatbiq qilinishi; 02 - qoplama turining raqamli belgisi; 9-qoplamaning qalinligi, jim da (1-shakl).



1-shakil


Boltlar. Bolt silindrik stanjendan iborat bo'lib, uning bir uchi kallakli, ikkinchi uchi rezbali bo'ladi (2-shakl). Boltlar kallagining shakli olti qirrali, kvadrat, yarim yumaloq, konus shaklida va kallagining osti kvadratli yoki «murtakli» qilib ishlanadi. Boltlar dag'al (GOST 15589-70), normal (GOST 7798-70) va yuqori (GOST 7805-70) aniqlikda tayyorlanadi.



2-
shakl
Bol
tlar
kallagini
ng shakli
va
o'lchami
ga,
sterjenni
ng
shakliga,
rezbasini
ng
qad

amiga, bajarilishi, ko'rinishi va tayyorlanish aniqligiga qarab ajratiladi (2-shakl). Yuqori aniqlikdagi (*A turkum*) bolt sirtining tozaligi belgilari (2-shakl, a), normal aniqlikdagi (*B turkum*) bolt sirtining tozaligi belgilari (2-shakl, b), dag'al aniqlikdagi (*C turkum*) bolt sirtining tozaligi belgilari 2-shakl, d) ko'rsatilgan. Boltning bajarilishiga qarab sterjenda shplint uchun teshik (2- shakl, e) yoki boltning o'z-o'zidan buralib ketmasligi uchun kallagida sim bilan bog'lab qo'yishga mo'ljallangan ikkita teshik (2- shakl, f) o'yilishi mumkin.


Kallagining o'lchamiga qarab boltlar normal kallakli va kichraytirilgan kallakli bo'ladi. Yarimyumaloq va yashirin kallakli boltlar kallagining osti murtakli qilib tayyorlaydi 3-shakl, a, b). Yarimyumaloq va yashirin kallakli boltlar kallagining osti kvadratli qilib tayyorlanadi (3-shakl, d, e).



3-
shakl

Boltlami berilgan sterjen diametriga nisbatan taxminiy o'lchamlarda

chizish mumkin (4- shakl). Bolt rezbasining diametri $d=20$ mm berilgan bo'lsa, rezbaning nominal diametri, ya'ni tashqi rezbasi diametri $d=20$ mm, ichki rezbasining diametri $d=0,85d=17$ mm, kallagining burchaklarini qamrab oluvchi aylana diametri $D=2d=40$ mm kallagining kalitbop o'lchami yasash yo'li bilan aniqlanadi yoki $1,73d$ olinadi, kallagining balandligi $H=0,7d=14$ mm, rezbaning uzunligi $l=2d+6=46$ mm, faskasi $c=0,15d=3$ mm, bolt kallagi burchaklarining uchlaridagi burchagi 120° li konusli faska bilan kesishishidan hosil bo'lgan yoqlardagi giperbolalar o'rniga $R=1,5d$ va $R=d$ radiusli aylana yoylarida chiziladi. Boltning uzunligi l (bolt kallagi H uning uzunligiga kirmaydi) biriktiriluvchi detallarning qalinliklariga bog'liq bo'ladi, ya'ni $H_1+H_2, +1,3d$ olinadi.




4-Shakil

Shpilkalar (GOST22032-76... GOST22041-76). Shpilkalar silindrik sterjen bo'lib, uning ikkala uchiga rezba o'yilgan bo'ladi. Uning kalta rezbali uchi biriktiriluvchi detallarning biriga burab kiritiladi, ikkinchi uchiga gayka burab kiritiladi (5-shakl, a va b). Shpilkalardan konstruktiv nuqtayi nazardan boltlarni ishlatish mumkin bo'lmaydigan joylarda foydalaniladi. Ularning ikkala uchiga ham yirik yoki mayda qadamli metrik rezbalar o'yilgan bo'lishi mumkin.

Shpilkaning burab kiritiladigan l qismining uzunligini uning qanday materialdan tayyorlangan uyaga burab kiritilishiga bog'liq. Kiritiladigan rezbali uya qattiq materialda o'yilgan bo'lsa, $l= d$ va $l=1,25d$, yumshoq materialga kiritiladigan bo'lsa, $l= 1,6 d$ va $l=2,5d$ qilib tayyorlanadi.

Shpilkaning uzunligi l (shpilka uzunligi 1; kirmaydi) shpilkaga kiydirilib, mustahkamlanadigan detaining qalinligi H ga bog'liq bo'ladi, ya'ni $l=H +13d$ ga teng qilib olinadi.



ADABIYOTLAR:

1. RahmonovI., ValiyevA.N. Chizmachilik. T., «Voriz nashriyot», 2011.
2. Rahmonov I., Abdurahmonov A. Chizmachilikdan ma'lumotnoma. T., «A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi», 2005.

**FIZIKA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH****Ergasheva Mohira Ilxomjon qizi**

Guliston tumani 15-maktabning fizika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fizika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchi shaxsining shakllanishida muhim omil ekanligi, innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari, o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligini tashkil etish asoslari yuzasidan mulohazalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *fizika fani, innovatsion texnologiya, zamonaviy pedagogika, interaktiv metodlar, axborot texnologiyalari, an’anaviy ta’lim, nafaol obyekt, asosiy ishlovchi subyekt, pedagogik hamkorlik, o‘quvchi shaxsi.*

Taraqqiyotning bugungi bosqichi fizika fanini o‘qitishda o‘quv jarayonini sifatli tashkil etish maqsadida innovatsion texnologiyalardan foydalanishni talab etmoqda. Shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi faqat tayyor bilimlarini yod olish yo‘li bilan o‘qitilgan bo‘lsa, innovatsion texnologiyalar mavjud bilimlarni o‘quvchi shaxsi tomonidan izlab, qidirib o‘ylab, mushohada yo‘li bilan mustaqil o‘rganib, tahlil va taqdim qilish, amaliyotda qo‘llab ko‘rish va xulosalarni keltirib chiqarishni talab etadi. Bu jarayonda o‘quvchi o‘qituvchiga nisbatan ham faollashadi, mavjud qobiliyatlarini namoyish etish, kichik jamoada o‘zini va o‘zgalarni boshqarish, amaliy harakatlarini nazorat qilish, tez va mustaqil fikrlash imkoniyatlariga ega bo‘ladi. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchining mustaqil bilim olishi, ijodkorlik, izlanuvchanlik sifatlarining shakllanishiga, o‘zini o‘zi tarbiyalashga sharoit yaratiladi. Egallangan bilimlar darsning o‘zidayoq ko‘nikma va malakaga aylanishi jadallashadi. O‘qituvchi faqatgina boshqarish, yo‘naltirish, nazoratga olish funksiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi nafaol obyektidan asosiy ishlovchi, harakatdagi subyektga aylanadi. Uzlüksiz ta’lim tizimida bugungi zamonaviy fizika fanini o‘qitishda o‘qituvchisi nafaqat, puxta bilim sohibi, malakali kasb egasi, balki, axborot texnologiyalari bilimdoni, xususan, interaktiv metodlar targ‘ibotchisi, innovatsion dars uslublarining yaratuvchisi, dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar amaliyotchisi bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiya va innovatsion bilimlar, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchi shaxsining har tamonlama yetakchi, mustaqil izlanuvchan, iqtidorli kashfiyotchi, aniq va puxta bilim egasi, bilimlar himoyachisi bo‘lishini ta’minlaydi.

INNOVATSIYA (inglizcha innavation) - yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan samarali foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo‘lib fikrlash, individual va guruhlarda ishlash, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib, ta’lim mazmunining asosiy tarkibiy qismi sanaladi. Bu metodlarnig o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘quvchi shaxsini rivojlantiribgina qolmay, pedagogik faoliyatni qulaylashtirib, dars jarayonini qiziqarli

mashg'ulotlarga boyitadi, bilim olish sifatini kafolatlaydi, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida faol ijobiy hamkorlikni yuzaga chiqaradi. Bunday pedogogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular o'quvchi shaxsida quyidagilarni ta'minlaydi:

- O'quvchini o'quv jarayoniga tabiiy va uzluksiz qiziqtirish;
- O'quvchilarda dars jarayoniga bo'lgan qiziqishning keskin ortishi, befarqlik, loqaydlik, e'tiborsizlikning bartaraf etilishi;
- O'qituvchi shaxsiga faol ishlovchi, yangilik yaratuvchi, bunyodkor shaxs sifatida qarash;
- Taqdim etilgan bilimlarni tahlil qilish, izlanuvchanlik, kashfiyotchilik, ijodkorlik, xulosalash prinsiplari asosida qo'lga kiritish va uni amaliyotda qo'llay olish imkoniyatiga erishish;
- O'quvchi shaxsida qat'iy o'rnatilgan qoidalarga zo'rma-zo'raki itoat etish emas, o'z xohish-istaklari bilan tanib va ixtiyoriy tanlash motivlarini shakllantirish;
- Pedogog va o'quvchining uzluksiz hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish.

Ta'limda innovatsion texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqodchilar, amaliyotchilarning fikricha, innovatsion texnologiya nafaqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, balki, o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan vositalarning barcha tur va uslublarini qamrab oladi. Ta'limda innovatsion texnologiyaning eng asosiy vazifasi o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga erishishlariga sharoit yaratishdir. Har bir dars, mavzu, o'quv predmeti o'ziga xos texnologiyani talab etadi. U o'quvchining ehtiyoji va imkoniyatidan kelib chiqqan holda aniq bir maqsadga yo'naltiriladi. O'qituvchi o'z oldiga qo'yilgan maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga ham bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi va o'quvchi maqsaddan natijaga qarab borishlarida qanday texnologiyadan foydalanishlari ixtiyoriy bo'lib, bunda har ikkala tomonning ma'nfaati ko'zlanadi. Bunda o'quvchining bilim saviyasi, guruh xarakteri, mavjud imkoniyat va sharoitlar hisobga olinadi. Shuningdek o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos jihatlari, mavjud muhit va sharoitni, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyat va ehtiyojini, hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishi o'ta muhimdir. Ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, ulardan to'g'ri, maqsadli va unumli foydalanish kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan yosh avlodning mukammal bilim sohibi, tadbirkor, intiluvchan, ijodkor, kashfiyotchi, zamonaviy dunyoqarash egasi, jamiyat bilan hamnafas, axborot texnologiyalari bilimdoni etib shakkanishida yetakchi omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.H. Shokirova, Ta'limda innovatsion texnologiyalarning o'rni.-T.:2013
2. H.T.Omonov, M.B.Xattabov. Pedogogik texnologiyalar va pedogogik mahorat.-T.: 2016

**KASALLIK DIAGNOSTIKASI UCHUN INFORMATIV BELGILAR
MAJMUASINI ANIQLASHDA CNNNING O'RNI****N.S. Iskandarova,****N.S. Jabborova***TATU Axborot tizimlari va dasturiy
ta'minot kafedrası assistenti**TATU Axborot tizimlari va dasturiy
ta'minot kafedrası magistranti*

Mavjud kasallik hamda uni aniqlash uchun berilgan informative belgilarni hisoblashda, bugungi kunda CNN algoritmidan foydalanish butun dunyo olimlarining asosiy neyron tarmog'i hisolanadi, quyida berilgan maqolada ham o'pka saratonini aniqlashda CNN tarmog'i algoritmidan foydalanilgani yoritilib berilgan.


Kalit so'zlar: *Tasniflash, Konvolyutsion neyron tarmoqlari, aniqlash, lokalizatsiya, segmentatsiya*

Kirish: O'pka saratoni kasalliklari odamlar hayotida juda jiddiy sog'liq muammolari hisoblanadi. Ushbu kasalliklarga surunkali obstruktiv o'pka kasalligi, pnevmoniya, astma, sil va o'pka kasalliklari kiradi. O'pka saratoni kasalliklarini o'z vaqtida tashxislash juda muhimdir. Buning uchun ko'plab usullar ishlab chiqilgan. Ushbu maqolada an'anaviy va chuqur o'rganish yondashuvlari yordamida O'pka saratoni rentgenografiyasida O'pka saratoni patologiyasini tasniflashning maqsadga muvofiqligini namoyish etamiz. O'pka saratoni kasalliklarini tashxislash uchun konvulsion asab tizimlari (CNN) foydalanish maqsadga muvofiq deb ko'rsatilgan. CNN arxitekturasi va uning dizayn tamoyili taqdim etilgan. Taqqoslash maqsadida, O'pka saratoni kasalliklarini tashxislash uchun, kuzatuv ostida o'rganiladigan backpropagation neyron tarmoqlari (BPNN), nazoratsiz o'rganiladigan raqobatdosh neyron tarmoqlari (CpNN) qurilgan. Barcha ko'rib chiqilgan CNN, BPNN va CpNN tarmoqlari bir xil O'pka saratoni rentgen ma'lumotlar bazasida o'qitiladi va sinovdan o'tkaziladi.

Ushbu maqola CNN-ning tibbiy tasvirdagi dasturini to'liq ko'rib iqishga qaratilgan. Asosiy maqsad tibbiy tasviriy tadqiqotchilarni CNN-dan keng foydalanishga undashdir. Tibbiy tasvirlarni tushunishning asosiy vazifalari, ya'ni ularning tasnifi, segmentatsiya, lokalizatsiya va aniqlash joriy etildi. Tibbiy tasvirlarni tushunish uchun CNN-ni qo'llash miya, ko'krak, o'pka va boshqa organlarning kasalliklari tanqidiy va har tomonlama o'rganilgan..

Raqobatdosh neyronlar tarmog'i (CNN) - bu ikki qatlamdan iborat va mashg'ulotlar uchun nazoratsiz o'rganish algoritmidan foydalanadigan oddiy neyron tarmoq. Tarmoqning kirish xususiyatlari - bu xususiyatlar, va chiqishlari - bu sinflar. Kirish qatlami chiqish qatlamiga to'liq ulangan. Kirish va chiqish qatlamlari orasidagi har bir ulanish og'irlik koeffitsientlari bilan tavsiflanadi. Har bir davrda, kirish funktsiyalari tarmoq kiritishiga

tatbiq etilganda, chiqish qatlamidagi neyronlar o'zaro raqobatlashadi. Raqobatdosh neyron tarmoq (1-rasm) asosan Hebbian o'rganish qoidasiga tayanadi. Farq quyidagicha: raqobatbardosh o'qitishda faol neyronlar faollashishi uchun o'zaro raqobatlashishi kerak va istalgan vaqtda bir nechta neyron faollashtirilishi yoki otilishi mumkin bo'lgan Hebbian o'rganish bilan taqqoslaganda istalgan vaqtda faqat bitta neyron faollashadi.



1-rasm. Raqobatdosh neyron tarmoq

Ushbu tarmoqlar "hamma g'olib chiqadi" strategiyasidan foydalanadi, bu erda faqat g'olib neyronga ulangan og'irliklar ma'lum bir davrda yangilanadi, boshqa vaznlar esa yangilanmaydi. Tibbiy tasvir ichki organlarning vizualizatsiyasi uchun ularning anatomiyasi yoki faoliyatidagi anormalliklarni aniqlash uchun zarurdir. Tibbiy tasvirni suratga olish moslamalari, masalan rentgen, KT, MRI, PET va ultratovush skanerlari kabi ichki organlarning anatomiyasi yoki faoliyati va ularni tasvir yoki video sifatida taqdim etish. Rasmlar va videolar majburiy bo'lishi kerakanomaliyalarni aniq aniqlash uchun yoki funksional anormalliklarning diagnostikasi. Agar g'ayritabiiylik bo'lsa aniqlanadi, keyin uning joylashuvi, o'lchami va shakli aniq bo'lishi kerak aniqlandi. Ushbu vazifalarni an'anaviy ravishda shifokorlar o'zlarining hukmlari va tajribalariga asoslangan holda o'qitilgan. Sog'liqni saqlashning aqlli tizimlari ushbu vazifalarni bajarishga qaratilgan aqlli tibbiy tasvirni tushunish yordamida kasalliklarni aniqlaydi. Tibbiy tasvirni tasniflash,

segmentatsiya, aniqlash va lokalizatsiya qilish tibbiy tasvirni tushunishda muhim vazifalardir.

Segmentatsiya: Tibbiy tasvir segmentatsiyasi tasvirni tushunishda yordam beradi, xususiyatlarni ajratib olish va tanib olish, shikastlanishlar yoki boshqa normalliklarni miqdoriy baholash. Bu patologiyalarni tahlil qilish uchun ma'lumot va keyinchalik diagnostika va davolashni rejalashtirishda yordam beradi. Segmentatsiya maqsadi - bu tasvirni mintaqalarga ajratish kuchli korrelyatsiyalar. I Segmentatsiya ajratishni o'z ichiga oladi $R1, R1, \dots, RS$ mintaqalarining finite to'plamiga ifodalangan

$$I = \bigcup_{i=1}^S R_i, R_i \cap R_j \neq \emptyset \text{ va } i \neq j$$

Lokalizatsiya: Tibbiy tasvirni lokalizatsiya qilish Rasmlarda patologiyani avtomatik lokalizatsiya qilish juda to'g'ri avtomatik sotib olishni rejalashtirish tomon muhim qadam va post tasvirni tahlil qilish vazifalari, masalan, segmentatsiya va funktsional tahlil. Mahalliyashtirish ob'ektni bashorat qilishni o'z ichiga oladi tasvir atrofida, ob'ekt atrofida chegara qutisini chizish va ob'ektni markalash.

$$f(I) = (c, l_x, l_y, l_w, l_h).$$

Xulosa

CNN - tibbiy tasvirni tushunish muammolarini hal qilishning ommabop uslubi, xususiyati juda yuqori xususiyatlarga ega bo'lib o'rganish past, o'rta va yuqori darajadagi tibbiy tasvirning diskriminant xususiyatlarini aniqlaydi. CNNdan tibbiy qiyofani tushunishda ko'plab qiyinchiliklarni yengish uchun foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abadi M, Agarwal A, Barham P (2016) Tensorflow: large-scale machine learning on heterogeneous distributed systems. CoRR Arxiv: 1603.04467
2. Akkus Z, Galimzianova A, Hoogi A, Rubin DL, Erickson BJ (2017) Deep learning for brain MRI segmentation: state of the art and future directions. J Digit Imaging 30(4):449–459
3. Al-Rfou R, Alain G, Almahairi A, Angermueller C, Bahdanau D, Ballas N, Bengio Y (2016) Theano: a python framework for fast computation of mathematical expressions
4. Deep Convolutional Neural Networks for Chest Diseases Detection → Mohammad Khaleel Sallam Ma'aitah: rt.ude.uen@hatiaam.dammahom
5. Convolutional neural networks in medical image understanding: a survey → D. R. Sarvamangala1 · Raghavendra V. Kulkarni2

KIMYO FANINING O‘QITILISHI VA UNING MUAMMOLARI

Mehmonova Zarina Imomovna*Buxoro viloyati xalq ta’limi boshqarmasining
metodik xizmat bo’limi tabiiy fanlar metodisti*

XX asr boshlarida amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Djon Dyui, Gerbart didaktik tizimiga qarama-qarshi bo’lgan o’zining didaktik tizimini taklif qildi va uni Chikago maktablaridan birida muvaffaqiyatli sinab ko’rdi. Dyui darsda o’qituvchi emas o’quvchi faol bo’lmog’i lozim deb chiqdi. Darsda beriladigan bilimlar talabalar ehtiyojiga mos va ularning xoxishidan kelib chiqqan bo’lishi kerak deb hisoblagan. U kitobdagi bilimlarni quruq yod olish hech narsaga olib bormaydi, aksincha, o’quvchilarni o’qishdan sovutib, tafakkurini zanglatadi deb ta’kidlagan. Dyuning ta’lim tarbiyaga qo’shgan asosiy hissasi – bu “aql yuritishning to’liq jarayoni”dir.

Odatdagi an’anaviy o’qitish, avtoritar texnologiyaga taalluqlidir. unda, avvalo Ya.A.Komenskiy tomonidan ifoda etilgan, didaktika tamoyillariga asoslangan o’qitishning «sinf-dars» tizimida tashkil etish nazarda tutiladi. Hanuzgacha dunyoda eng ko’p tarqalgan o’qitishning «sinf-dars» tizimi hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning o’quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDHga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V.P. Bepalkoning fikricha, «PT – bu o’qituvchi mahoratiga bog’liq bo’lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o’quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir».

Hozirgi paytda O‘zbekistonda ta’lim jarayoniga quyidagi talablar qo’yilmoqda:

- sifat, ya’ni ta’limning belgilangan darajasini egallash;
Оилаларда болаларнинг экологик маданиятини шакллантириш – узоқ муддатли, мураккаб, икки томонлама алоқадорлик хамда динамик характерга эга мулоқат жараёни бўлиб, ушбу жараёнда ота-оналар ёки оиланинг бошқа аъзолари таъсирида болалар томонидан экологик билим хамда экологик фаолиятни кўникма ва малакаларнинг ўзлаштиришлари, фаол экологик фаолиятни ташкил этишга эришилади. Аниқ мақсадга йўналтирилган мазкур жараёнда қуйидаги педагогик вазифалар амалга оширилади:

1. Ота-оналарнинг экологик билимлардан хабардорлик даражасини аниқлаш.
2. Ота-оналар ўртасида экологик билимларни тарғиб этиш, уларни экологик таълим-тарбияни ташкил этиш борасида муайян тажрибага эга бўлишларига эришиш.
3. Оилаларда тарбия топаётган болаларни экологик билимлардан хабардор этиш.

Экологик мавзуларда ташкил этиладиган суҳбат, давра суҳбати, учрашув, методик, индивидуал тарздаги маслаҳатлар шаклида ташкил этилаётган ўзаро мулоқот ва тажриба алмашувлар оила шароитида экологик билимлар тарғиботини йўлга қўйишда ўзига хос рол ўйнайди. Оила аъзоларининг экологик билимлар табиатга интилиш, унга меҳр қўйиш табиат бойликларини ўзлаштиришда исрофгарчиликка йўл қўймаслик, табиат бойликларини асраш ва кўпайтиришга нисбатан масъулликни ҳис этиш, атроф-муҳит озодалиги учун курашиш ғояларини ўзида акс эттирувчи анъаналарга эга бўлиши болаларнинг ёшданок табиат ва атроф-муҳит муҳофазаси борасидаги билимларни ўзлаштириб боришлари учун замин яратади.

Оилаларда болаларнинг экологик маданиятини шакллантиришга йўналтирилган фаолият қуйидаги шаклларда амалга оширилиши керак:

– Оммавий ахборот мазмунидаги тадбирлар маъруза, бахс-мунозара, учрашув, суҳбатлар ўтказиш;

– Амалий тадбирлар–«Атроф мухит ва инсон саломатлиги», «Сув-хаёт манбаи», «Қанотли дўстлар-табиат санитарлари», «Гупроқ-тирик мавжудод бешиги», «Яшил табиат-гўзаллик тимсоли», «Табиат ва ахлоқ», «Биосфера ва сиёсат», «Атроф мухит ва ҳуқуқ» мавзуларида танлов, экскурсия, турли мультфильмлар, кинолар кўрсатиш мақсадга мувофиқдир;

– Якка тартибда олиб бориладиган тадбирлар – суҳбат, экопедагогик маслаҳат, махсус топшириқлар бериш;

Оила болаларида ҳосил бўлган экологик маданиятнинг шаклланишига даражаси куйидаги мезонлар билан ўлчаш мумкин:

1. Ижтимоий-экологик ўзгаришларнинг сабаб ва оқибатини тушуниши.

2. Инсон фаолияти экологик ўзгаришларнинг асосий омили эканлигини англаши.

3. Муайян минтақадаги ижтимоий – экологик ўзгаришлар даражасини баҳолай олиши.

4. Табиат ва атроф-мухит муҳофазасини ташкил этишга йўналтирилган фаолият моҳиятини тушуниши.

5. Экологик билимларни ўзлаштиришга нисбатан эҳтиёж ва қизиқишнинг мавжудлиги.

6. Экологик билимлардан хабардорлиги.

7. Табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, уларни кўпайтириш ҳақида ғамхўрлик қилиши.

8. Табиат ва атроф-мухит муҳофазаси борасида мустақил фаолият юритиш кўникма ва малакасига эга бўлиши.

9. Экологик хавфни бартараф қилишда фаол иштирок этиши.

Агарда оилаларда болаларнинг экологик маданиятини шакллантиришнинг ягона Концепциясини яратиш асосида кенг кўламли экологик фаолият ташкил этилса, этнопсихологик хусусиятларни инобатга олган ҳолда оилаларда экологик таълим-тарбияни ташкил этиш тўғрисида етарли маълумотлар берувчи методик қўлланмалар яратилиб, ўз вақтида бу адабиётлар билан ота-оналар таъминласа, албатта оилада болаларни экологик маданиятини шакллантириш борасида кўзланган мақсадга эришилади.

Хулоса ўрнида шуни айтишимиз керакки, болаларда экологик маданиятни ривожлантириш орқали инсонларга, табиатга онгли муносабатни ўргатамиз.

ГАЗБЕТОН: ЗАМОНАВИЙ ҚУРИЛИШ МАТЕРИАЛИ**Калбайев Мирзабек, Нормуродов Абдурауф***Тошкент архитектура-қурилиш институти**Қурилиш материаллари факультети,**Қурилиш материаллари буйимлари ва конструкцияларини**ишлаб чиқариш технологияси йўналиши магистранти*

Аннотация: Газбетон иссиқлик изоляция, овоз изоляция, олов ва могор каби тузилмалар учун жуда кўп афзалликларга эга. Қаришлик, вазнинг пасайиши ва бошқа кўп нарсалар. Газбетон маҳсулотларга блоклар, девор панеллари, поллар, том панеллари ва линтеллар кирради.

Ушбу мақола енгил бетоннинг ривожланиши билан боғлиқ бўлиб, у бундан кейин газбетон деб номланади, бу шунингдек анъанавий бетон блоклари ва газбетон блоклари ўртасидаги фарқни кўрсатади.

Таянч сўзлар: Газбетон, бетон, сиқилиш қуввати, зичлик.

Aerated Concrete is an important construction material for architects, engineers and builders. Also it is an appropriate material with high energy efficiency, fire safety, and cost effectiveness. AC is a versatile light weight concrete and they are generally used as blocks. AC is produced by adding in a predetermined amount of aluminium powder and other additives into slurry of ground high silica sand, cement, lime powder, water. Aerated concrete (AC) is a popular building material which is used all over the world. It has a history of 50 successful years can be used in all environments for all types of buildings (Wittmann, 1983, 1992). Since then, the production and use of aerated concrete have spread to more than 40 countries of all continents, including North America, Central and South America, Europe, the Middle East, the Far East and Australia. This wide experience has produced many case studies of the use in different climates and under different building codes. In the United States, modern uses of AAC began in 1990 for residential and commercial projects in the Southeastern states. U.S. production of plain and reinforced AAC started in 1995 in the Southeast and has since spread to other parts of the country. AAC's low density also accounts for its low structural compression strength. It can carry loads of up to 8 MPa (1160psi), approximately 50% of the compressive strength of the regular concrete. Johan Alexanderson (1979) studied the relations between structure and mechanical properties of autoclave aerated concrete and he found that the strength of aerated concrete specially cement and lime mixing, increased with increasing amount of hydrates and with decreasing porosity. AAC is approved for use in Seismic Design Categories A, B and C by the 2007 Supplement to the International Building Code, and in other geographic locations with the approval of the local building official.

MATERIALS USED Cement (OPC): As per IS:12269 (53 grade), Ordinary Portland Cement (OPC) of 53 grade were taken in this project as it provides high strength and durability to structures because of its optimum particle size distribution, superior crystalline

structure and balanced phase composition. In the construction industry, most of the cement used in the present day context is either C53 or C43



grades.

Sand: The quality of sand used in concrete affects more or less for both fresh and hardened properties of the concrete. In the present investigation, a good quality and well-graded natural river sand was used. The sand was sieved properly through 4.75 mm sieve to take out the pebbles or organic matter (if any). Confirming to IS 383-1970, natural sand was taken in the present project work, where silica content should not be less than 80%.



Lime: As per IS 712-1973, Lime is a calcium-containing inorganic mineral in which carbonates, oxides, and hydroxides predominate. In the strict sense of the term, lime is calcium oxide or calcium hydroxide. It is also the name of the natural mineral (native lime) CaO which occurs as a product of coal seam fires and in altered limestone xenoliths in volcanic ejection. It should be class 'C' lime.

APPLICATION OF AERATED CONCRETE:

1. Aerated concrete blocks can be useful in various building types such as commercial, residential and educational.

2. These blocks are applicable in warehouses and buildings with industrial aim, bearing in mind their high insulation capacities, less construction time, cost effectiveness and also their light weight which reduces dead load of building, considerably makes AC an adequate material to use.

3. Aerated concrete is used in the construction of dwellings and businesses. AC can be used to quickly create kitchen surfaces. AC has the advantage that it can be shaped with saws, files and rasps.

4. AC is used preferentially in external walls because of its outstanding insulation properties.

5. AC is used in multi-storey buildings and it is quite viable for even 5-storey constructions.

REFERENCES

[1]. Акрамов.Х.А, Ҳ.Н.Нуритдинов “Бетон ва темир-бетон буюмлари ишлаб чиқариш технологияси” Тошкент 2011

[2]. 2011 Аскарлов Б.А. Низомов.СҲ.Р. “Темирбетон ва тош ғишт конструкциялари” Тошкент 2003

[3]. В.Н.Байков, Э.Е.Сигалов “Железобетонные конструкци” общий курс, Москва “Стройздат” 1991.

[4] Wittmann, F.H. (ed.).1992. Advances in Autoclaved Aerated Concrete, Proceedings 3rd RILEM International Symposium on Autoclaved Aerated Concrete.

[5] Wittmann, F.H. (ed.).1983.Autoclaved Aerated Concrete, Moisture and Properties, Developments in Civil Engineering.

[6] Building Green Suite website: Green Building.com, 28 March 2012.

[7] Richard E. Klingner.2008. Using Autoclaved Aerated Concrete Correctly, Masonry Magazine.

[8] CEB Manual of design and technology. Autoclaved aerated concrete. The Construction Press, 1977.

[9] Valore RC.1954. Cellular concretes-physical properties. J Am Concr Inst.

[10] Rudnai G.1963. Light weight concretes. Budapest: Akademi Kiado.

[11] ACI Committee 523. Guide for cellular concretes above 50 pcf, and for aggregate concretes above 50 pcf with compressive strengths less than 2500 psi. J Am Concr Inst.

[12] Legatski LA. Cellular concrete, signi@cance of tests and properties of concrete and concrete making materials. In: Klieger PK, Lamond JF, editors. ASTM Special Technical Publication. Philadelphia.

UCH O'LCHAMLI QO'ZG'ALISHGA EGA UMUMLASHGAN FRIDRIXS
MODELINING SONLI TASVIRI

Ismoilova Dildora Erkinovna

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada uch o'lchamli qo'zg'alishga ega umumlashgan Fridrixs modeli qaraladi va uning sonli tasviri uchun aniq formula topiladi.

Kalit so'zlar: umumlashgan Fridrixs modeli, sonli tasvir, spektr.

Dastavval o'quvchiga qulaylik uchun sonli tasvir tushunchasining ta'rifini keltirib, ba'zi ma'lumotlarni bayon qilamiz. Faraz qilaylik, H - kompleks Gilbert fazosi va $A : H \rightarrow H$ - chiziqli operator bo'lib, $D(A) \subset H$ uning aniqlanish sohasi bo'lsin. Ushbu $W(A) := \{(Ax, x) : x \in D(A), \|x\|=1\}$ tenglik yordamida aniqlangan to'plamga A operatorning sonli tasviri deyiladi. Umuman olganda $W(A)$ sonli tasvir ochiq to'plam ham yopiq to'plam ham bo'lmaydi. $W(A)$ ochiq to'plam bo'ladigan, yopiq to'plam bo'ladigan hamda ochiq ham yopiq ham bo'lmaydigan chiziqli operatorlarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Aniqlanishiga ko'ra $W(A)$ to'plam kompleks sonlar to'plamining qism to'plami bo'lib, $W(A)$ to'plamning geometrik xossalaridan foydalanib A operator haqida ma'lumot olish mumkin.

T^d orqali d o'lchamli torni, C orqali bir o'lchamli kompleks fazoni va $L_2(T^d)$ orqali T^d to'plamda aniqlangan kvadrati bilan integrallanuvchi (umuman olganda kompleks qiymat qabul qiluvchi) funksiyalarning Gilbert fazosini belgilaymiz.

Faraz qilaylik, $H_0 := C$ (birinchi kanal), $H_1 := L_2(T^d)$ (ikkinchi kanal) va $H := H_0 \oplus L_2(T^d)$ bo'lsin. Ushbu

$$F(L_2(T^d)) := C \oplus L_2(T^d) \oplus L_2((T^d)^2) \oplus \dots$$

tenglik yordamida aniqlangan Gilbert fazoga Fok fazosi deyiladi. H_0 va H_1 fazolarga esa Fok fazosining mos ravishda nol zarrachali va bir zarrachali qism fazolari deyiladi. Mazkur maqolada H Gilbert fazosidagi quyidagi ikkinchi tartibli blok operatorli matritsani qaraymiz:

$$A_{\mu, \lambda} := \begin{pmatrix} A_{00} & \mu A_{01} \\ \mu A_{01}^* & A_{11}^0 - \lambda V \end{pmatrix}$$

Bunda

$$A_{00} f_0 = a f_0, \quad A_{01} f_1 = \int_{T^d} v_0(t) f_1(t) dt,$$

$$(A_{11}^0 f_1)(x) = u(x) f_1(x) \quad (Vf)(x) = v_1(x) \int_{T^d} v_1(t) f_1(t) dt$$

Bu yerda $A_{\mu,\lambda}$ operatorning parametrlari bo'lgan a, λ, μ sonlari hamda $u(\cdot), v_0(\cdot)$ va $v_1(\cdot)$ funksiyalarga quyidagicha shartlar qo'yilgan:

a - fiksirlangan haqiqiy son, μ, λ - fiksirlangan haqiqiy musbat son (ta'sirlashish parametri), $u(\cdot), v_0(\cdot), v_1(\cdot)$ funksiyalar esa T^d da aniqlangan haqiqiy qiymatli uzluksiz funksiyalardir.

$A_{\mu,\lambda}$ operator uning parametrlariga qo'yilgan yuqoridagi shartlarda H Gilbert fazosidagi chiziqli, chegaralangan va o'z-o'ziga qo'shma operator bo'ladi.

Chekli o'lchamli qo'zg'alishlarda muhim spektrning o'zgarmasligi to'g'risidagi mashhur Veyl teoremasiga ko'ra $A_{\mu,\lambda}$ blok operatorli matritsaning muhim spektri μ va λ ta'sirlashish parametrlariga bog'liq bo'lmagan ravishda $[m, M]$ kesma bilan ustma-ust tushadi. Bu yerda

$$m := \min_{T^d} u(x), M := \max_{T^d} u(x)$$

$A_{\mu,\lambda}$ blok operatorli matritsaning diskret spektrini aniqlashda muhim bo'lgan hamda $C \setminus [m, M]$ sohada regulyar bo'lgan

$$\Delta_{\mu}^{(1)}(z) := a - z - \mu^2 \int_{T^d} \frac{v_0^2(t) dt}{u(t) - z}; \Delta_{\lambda}^{(2)}(z) := 1 - \lambda \int_{T^d} \frac{v_1^2(t) dt}{u(t) - z}; I(z) := \int_{T^d} \frac{v_0(t)v_1(t) dt}{u(t) - z}$$

funksiyalarni qaraymiz. Ushbu maqolada $I(z) = 0$ va

$$\int_{T^d} \frac{v_i^2(t) dt}{u(t) - z}, \quad i = 0, 1$$

integrallar $[m; M]$ kesmaning chegaraviy nuqtalarida chekli bo'lgan holda $A_{\mu,\lambda}$ operator sonli tasvirini topish masalasini qaraymiz.

Istalgan $\mu > 0$ soni uchun $A_{\mu}^{(1)}$ operator ko'pi bilan ikkita xos qiymatlarga ega bo'lib, ulardan biri m dan chapda, ikkinchisi esa M dan o'ngda joylashgan bo'ladi. Biz ularni mos ravishda $E_{\mu}^{(1)} < m$ va $E_{\lambda}^{(2)} > M$ orqali belgilaymiz. Demak, xos qiymatlar mavjud bo'lgan holda $\sigma(A_{\mu}^{(1)}) = \{E_{\mu}^{(1)}\} \cup [m; M] \cup \{E_{\lambda}^{(2)}\}$ tenglik o'rinli bo'ladi. Shu sababli $W(A_{\mu}^{(1)}) = [E_{\mu}^{(1)}; E_{\lambda}^{(2)}]$. Umumiy holda esa

$$\overline{W(A_{\mu}^{(1)})} = [\min \sigma(A_{\mu}^{(1)}); \max \sigma(A_{\mu}^{(1)})]$$

tenglik o'rinlidir.

Xuddi shuningdek, ixtiyoriy $\lambda > 0$ soni uchun $A_{\lambda}^{(2)}$ operator yagona xos qiymatga ega bo'lib, u m dan chapda joylashgan bo'ladi. Bu operator M dan o'ngda joylashgan xos qiymatlarga ega emas.

Demak, $A_{\lambda}^{(2)}$ operatorning xos qiymati mavjud bo'lgan holda uni $e_{\lambda} < m$ orqali belgilaymiz. Bu holda $\sigma(A_{\lambda}^{(2)}) = \{e_{\lambda}\} \cup [m; M]$ tenglik o'rinli bo'ladi hamda $\sigma(A_{\lambda}^{(2)}) = [e_{\lambda}; M]$ tenglik o'rinli bo'ladi. Umumiy holda $\overline{W(A_{\lambda}^{(2)})} = [\min \sigma(A_{\lambda}^{(2)}); M]$

tenglik o‘rinli bo‘lib, $M \notin W(A_\lambda^{(2)})$ munosabat bajariladi.

Endi $A_{\mu,\lambda}$ operatorning sonli tasvirini tadqiq qilish masalasini qaraymiz.

Agar $\sigma(A_{\mu,\lambda}) = \sigma(A_\mu^{(1)}) \cup \sigma(A_\lambda^{(2)})$ ekanligini inobatga olsak, u holda

$$\min \sigma(A_{\mu,\lambda}) = \min \{ \min \sigma(A_\mu^{(1)}), \min \sigma(A_\lambda^{(2)}) \};$$

$$\max \sigma(A_{\mu,\lambda}) = \max \{ \max \sigma(A_\mu^{(1)}), \max \sigma(A_\lambda^{(2)}) \}$$

tengliklar o‘rinlidir. Demak $\overline{W(A_{\mu,\lambda})} = [\min \sigma(A_{\mu,\lambda}), \max \sigma(A_{\mu,\lambda})]$ tenglik o‘rinli ekan. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda

$$\overline{W(A_\mu^{(1)})} \subset \overline{W(A_{\mu,\lambda})} ; \overline{W(A_\lambda^{(2)})} \subset \overline{W(A_{\mu,\lambda})}$$

munosabatlarni hosil qilamiz.

**ПРОКОРИОТ ВА ЭУКАРИОТ ХУЖАЙРАЛАР ВА УЛАРНИНГ
ЭВОЛЮЦИЯСИ****Салимова Гулчеҳра Каримовна***Бухоро вилояти Гиждувон тумани**43 - сонли мактаб биология ўқитувчиси*

Аннотация: *ушбу мақолада ҳужайраларнинг келиб чиқиши, прокориот ва эукариот ҳужайралар, эукариотларнинг келиб чиқиши соҳасидаги баъзи бир гипотезалар ҳамда ҳар бир гипотезанинг умумий ва қисқача таснифи ҳақида сўз боради.*

Калит сўзлар: *ҳужайралар, прокориот ва эукариот ҳужайралар, гипотеза, тўқималар, пластидалар ва митохондриялар.*

Ҳужайраларнинг келиб чиқиши, мутахассислашиши ва уларнинг бирлашиб тўқималарни ҳосил қилиши уларнинг филогенези билан боғлиқдир. Бироқ, уларни тушунтириш анча қийин, чунки прокориотик ва эукариотик ҳужайралар тузилишида кескин фарқ мавжуд. Шунга қарамасдан бу соҳани тушунтирувчи бир нечта гипотезалар мавжуд. Қазилма ҳолида мавжуд бўлган бактериялар ва цианобактерияларни ўрганиш шуни кўрсатадики, дастлабки ҳужайра шаклидаги организмлар прокориотлар бўлган. Улар 3,5 миллиард йил илгари пайдо бўлган. Бу организмлар дастлаб биологик усулда ҳосил бўлмаган органик молекулалар билан озикланиб кўпайиб келганлар. Ҳужайранинг шаклланишида ҳужайрани ташқи муҳитдан ажратиб турувчи ҳужайра мембранаси дастлаб ҳосил бўлган. Кейинчалик примитив прокориотик ҳужайраларда синтез ва энергия билан таъминлашга хизмат қилувчи механизмлари пайдо бўлган. Дастлабки прокориот ҳужайралар ўзини энергия билан таъминловчи оддий катаболитик (парчаланиш) жараёнига эга бўлганлар яъни, энергия билан таъминлаш ачитиш реакциялари ҳисобида ўтган.

Кейинчалик баъзи бир прокариот ҳужайралар ачитишдан нафас олиш жараёнига ўтган. Шу сабабли бу хил прокариотларда энергия билан таъминланиш анча юқори даражада бўлган.

Эукариот ҳужайралар 1 миллиардга яқин йил олдин прокариот ҳужайраларнинг эволюция жараёнида келиб чиққан деган тахминлар мавжуд. Эукариотларнинг келиб чиқиши соҳасида 3 та гипотеза бор.

1-чи гипотеза. Ҳужайра симбиози гипотезаси. Бу кўп тарқалган гипотеза бўлиб, унинг тушунтиришича эукариот ҳужайралар умумий қобик билан қопланган ҳар хил типдаги (тузилишга эга бўлган) ҳужайралар йиғиндисидан (симбиозидан) ҳосил бўлган. Жумладан, яшил ўсимликлардаги пластидалар ҳозирги кунда яшаётган цианобактерияларнинг аждодлари бўлмиш бактериялардан келиб чиққан, бу хил ҳужайраларда фотосинтез жараёни бўлган. Натижада атмосферага кислород ажралиб чиқа бошлаган нафас олиш учун организмлар эркин кислородни қабул қилган.

Ядро ҳам ҳужайра ичидаги симбиотонинг ўз цитоплазмасини йўқотган қолдиқларидан пайдо бўлган.

Эукариот ҳужайраларнинг ана шундай усулда пайдо бўлганлигини тасдиқловчи ҳозирги замонда симбиотик муносабатда бўлган баъзи бир организмларни мисол қилиб олишимиз мумкин.

Масалан, бир ҳужайрали сув ўти хлорелла (chlorella) яшил парамециум (paramecium bussaria) цитоплазмаси таркибида яшайди. У парамециумни фотосинтез маҳсулоти билан таъминлаб туради.

Пластидалар ва митохондрияларда ўзларининг генетик информацияларини сақловчи махсус ДНК, м-РНК, р-РНК ва т-РНКлари ва ферментлари бўлади. Митохондриялар генларда бўладиган мутациялар ядро генларидаги мутациялардан мустақил ҳолда бўлади.

2-чи гипотеза бўйича эукариотик ҳужайралар ҳужайра мембранасида жойлашган бир нечта геномли прокариот ҳужайралардан келиб чиққан. Натижада ҳужайра мембранасидан дастлабки фотосинтез жараёнини бажарувчи мезосомалар ҳосил бўлган. Кейинчалик органелларнинг мутахассисланиши кузатилиб, натижада улардан биттаси нафас олиш ва фотосинтез қилиш функцияларини ривожлантириб, ҳайвонларда митохондрияларга ва ўсимликларда пластидаларга айланган. Ядро ва митохондриялар мембраналарининг қўш қаватлилиги бу гипотеза фойдасига қўл келади.

3-чи гипотеза. Барча тирик организмлар аноэроб ферментатив озикланувчи гетеротрофлардан келиб чиққан. Эукариотлар ҳам эндоцитиоз усулда прокариотлар мембранасидан ҳосил булган. Баъзи бир прокариотлар бошқа хил прокариотларни ютиб олиб қўшимча метаболик жараёнга эга бўлганлар. Кейинчалик улар дегенерацияга учраб органелларга айланган. Шундай усул билан прокариотлардан эукариот организмлар пайдо бўлган.

Эукариотларнинг симбиотик йўл билан келиб чиққан деган биринчи гипотеза кўп тарқалган. Бироқ уни қўллаган ҳолда яна шуни таъкидлаш лозимки митохондриялар ва хлоропластларнинг тузилиши ҳозирги бактериялар ва цианобактериялар тузилишига ўхшашлик томонлари бўлгани ҳолда улар бир - биридан фарқ қилишади ҳам. Жумладан митохондриялар ва хлоропластлар ДНКси анча кичик. Демак, митохондриялар ва пластидалар эволюция жараёнида кичиклашиб борганлар.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Хамдамов И.Х. Ҳозирги замон табиғ фанлар концепцияси. Тошкент. Мехнат. 2008й.
2. Тўракулов Е.Х. «Молекуляр биология», Тошкент. «Ўқитувчи» 1993 й
3. Пехов А.П., «Биология с основами экологии», Санк-Петербург., 2000 й.
4. <https://uz.thinkfirsttahoe.org/>
5. <https://vaqt.ucoz.com/>

Эркинов Ж.Т.,
Мирзаитова М.К.,
Абдуллаева Г.Д.,

Андижон қишлоқ хўжалик институти

Сабзавотчилик қишлоқ хўжалигини энг қадимги тармоқлардан биридир. Республикамизни об-ҳавоси, тупроқ шароити сабзавот экинлари етиштириш учун қулайдир.

Помидор аҳоли томонидан энг қуп ва ёқтириб истеъмол этиладиган сабзавотдир. Барча сабзавот майдонини қариб ярмини ва тайёрланаётган йиллик махсулотнинг 65% ни помидор ташкил этади. Бу бежиз эмас албатта. Помидор таркибида инсон учун энг зарур бўлган озик моддалар, тузлар ва витаминлар мавжуд.

Тадқиқотчи олим Рубин маълумотиға кўра помидор таркибида қуйидаги моддалар мавжуд; сув-93-92%, қуруқ модда 6,58%, шундан оксил – 0,61%, углеводлар-3,99%, мой-0,9% Свитамин – 3,5мг, А витамин – 0,2-2 мг, В витамин (тиамин) 1,6-6 мг бўлади.

Помидор аслида Жанубий Америкадан келиб чиққан. Европага – XVI асрнинг ўрталарида келтирилган бўлсада, узоқ вақтгача уни манзарали ёки доривор ўсимлик синтезида ўстирила бошлаган. XVII асрнинг охирларидан бошлаб помидор Ўрта Осиёда ҳам экила бошлади.

Бизнинг Республикамизда помидор ўсимлиги 1930 йилларда кириб кела бошлади. Помидор яқин 100 йилдан бери халқ хўжалигида кенг фойдаланилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси ҳукумати томонидан сабзавотчиликни талаб даражасида ривожлантириш учун кўп қарорлар ташкилий масалалар ҳал қилинди. Мева-сабзавотчиликка ихтисослашган ширкат хўжаликлар тугатилиб, фермер хўжаликлари ташкил этилди.

Ҳозирги пайтда қишлоқ хўжалигида пестицидларни кенг кўламда ишлатишни зарарли оқибатлари маълум бўлмоқда. Чунки, кўп йиллар мобайнида кимёвий моддаларни суринкали ишлатилиши натижасида атроф-муҳит, сув, ҳаво ва хайвонот олами зарарланиб, инсонлар саломатлигига катта путур етказилмоқда. Шунинг учун кейинги йилларда помидор касалликларига қарши курашда уйғунлашган кураш услубидан фойдаланишга катта эътибор берилмоқда.

Бунинг учун қишлоқ хўжалигида барча агротехник чора тадбирларни илм-фан тавсияномаларига ва илғор тажрибаларига мувофиқ ўтказиш, бегона ўтларга, зараркунанда ва касалликларга қарши кураш чораларини жорий қилиш муаммоларни ечишда мутлоқо янгича ёндашув бўлиши кераклигини тақозо қилади.

Итузумдошлар оиласига мансуб бўлган ўсимликлардан помидор, бақлажон ва болгар қалампери каби ўсимликлар ҳисобланиб улар ўсув даврида

ҳар хил касалликлар билан касалланади. Касалликларни асосий кўзғатувчилари ҳар хил бактерия ва замбуруғлар ҳисобланади.

Энг хавфли касалликлардан бири фитифтороз бўлиб ҳисобланади. Касаллик кўзғатувчининг бутун ўсимликнинг ер устки қисмини тўла зарарлаганидан кейин помидор меваларини ва картошка илдизмевасини тўлалигича касаллатиришни амалга ошира бошлайди. Натижада ўсимлик ҳосилини пасайтирибгина қолмасдан балки ҳосилни сифат кўрсаткичига ҳам таъсир этмай қолмайди.

Шунинг билан бирга олимларимизнинг изланишлари натижасида майдонларда янги навларни тез-тез алмаштириб экомқдалар ҳамда касаллик кўзғатувчи яшаш даврини қисқартириши учун ноқулай шароитлар яратиш натижасида помидор ва картошка экилаётган майдонидаги тупроқдан бир қисм патогенни йўқ қилишига олиб келмоқдалар.

Касалликни *Phytophthora infestans* оомицет замбуруғи кўзғатади. Кейинги йилларда помидор фитифторози Ўзбекистонда иссиқхоналарда кенг тарқалган касалликка айланди. Салқин ва нам (ёмғирли, шабнамли) об-ҳавода помидор меваларининг 60-70 фоизи зарарланиши мумкин. Касаллик ўсимликлар гуллаш пайтида бошланади. Барг бандлари пастга букилади ва барглари осилиб қолади; барглари устида қайноқ сувга куйганга ўхшаш доғлар пайдо бўлиб, улар сўнгра кўнғир ёки тўқ-кўнғир тус олади, кейинчалик барг тўқимаси бироз оқариб, юпқа қоғозсимон бўлиб қолади.

Замбуруғ очик далаларда тупроқ устида ўсимлик қолдиқларида ва итузумдошлар оиласига мансуб бегона ўтларда кишлайди. Касаллик экинга қўшни далалардаги картошка ва помидордан ҳам тарқалади. Кўчатхоналарда касаллик пайдо бўлиши жуда хавфли; юқори ҳароратда касаллик белгилари юзага чиқмаслиги мумкин, улар очик далага кўчириб экилгач, фитифтороз ўчоқларини пайдо қилади.

Таклифлар: Помидор асосан ҳўл мева сифатида истеъмол қилиниши туфайли унда пестицид қолдиқлари бўлмаслиги (экологик тоза бўлиши) ўта муҳим. Шу сабабдан экинни фитифтороздан, иложи бориша фунгицид қўлламадан, агротехник ва профилактик тадбирлар ёрдамида ҳимоялаш тавсия қилинади.

Буларга чидамли ёки толерант навлар яратиш, алмашлаб экиш, олдинги йили помидор ёки картошка экилган далаларга экмаслик, экин ичида шамол яхши юришини таъминлаш (ортиқча шохларини ўз вақтида буташ, вентиляция), азотли ўғитларнинг тавсиядаги минимал миқдорларини бериш (булар, айниқса нитратли шакллари, касаллик кучли ривожланишига олиб келади), ўсимлик қолдиқларини даладан чиқариб, йўқотиш тавсия қилинади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Новиков М.И., Литвененко А.И., Колько Т.В. Влияние новых биопрепаратов, созданных на основа штаммов микробов – антогинистов, их комплекс возбудителей корневых гнилей огурца. 1995 год. Стр 46-53.
2. Билай В.И. «Фузарию». Киев. 1977 г.
3. Пересыпкин В.Ф. С.-х. фитопатология. М.: «Колос», 1982, 512 с.

УДК: 630.182.8

**АВТОМОБИЛ ЙЎЛЛАРИ ИҶОТА МАЙДОНИДАГИ ДАРАХТЛАРНИНГ
ЧАНГ ТУТИШ ДАРАЖАЛАРИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ****Юлдашев Шохрух Шухратжон ўғли***НамМҚИ магистранти***Бахриддинов Нуриддин Садриддинович***НамМҚИ Ҳаётий фаолият хавфсизлиги кафедраси**доценти, техника фанлари номзоди*

Аннотация: Ушбу мақолада автомобил йўлларининг иҳота майдонлари экологик ҳолати бўйича унга экилган дарахт ва гулларнинг атроф-муҳитни ифлослаб, инсон организмига салбий таъсир кўрсатувчи чанглари тутиб қолиш даражаларининг дарахт турига боғлиқлиги асослаб берилган. Асосий масала экиладиган майдон ҳолатига мос кўчатларни танлаш муҳимлиги кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: *автомобил йўллари, иҳота майдонлари, чанг тутиб қолиш даражалари, экологик муаммолар, транспорт*

Асосий қисм

Ҳозирги вақтда экологик муаммоларнинг асосини чиқиндилар ташкил қилади. Ушбу чиқиндилар саноат ва маиший чиқинди турларида бўлиб, буларнинг глобал даражага чиқишига қадар зарарсизлантириш орқали атроф-муҳитнинг муҳофазаланишига эришиш қулай ҳисобланади.

Энг юқори даражадаги чиқиндилар саноат ва транспорт воситаларидан чиқаётган чиқиндилар бўлиб ҳисобланади. Чунки, жамият тараққиётининг асосий негизда транспорт воситалари туриши сабабли уларнинг сони ортиб бориши баробарида юзага келтираётган чиқиндилари ҳам ортиб боради.

Транспорт воситаларининг атроф-муҳитни ифлослаши – авваламбор, уларнинг двигателларидан чиқараётган чиқинди газлар ҳисобига бўлса, иккиламчи сифатида йўлда юриши натижасида тупроқ чанглари ҳосил қилиб ифлослаши бўлади. Транспорт воситалари ривожланиши чиқиндини орттиришига олиб келиши билан инсон саломатлигига салбий таъсир этувчи омиллар миқдори ортиши кузатилади. Демак, саноат ишлаб чиқариши, транспорт воситаларининг ҳаракатланиши натижасида чиқиндилар ҳосил бўлади ва уларнинг атроф-муҳитга таъсири туфайли инсон организми ҳам зарар кўради.

Табиат шундай яралганки, табиатнинг ўзида юзага келган зарарли омилларни ўзи тозалайди, ўзи организмларнинг яшашига қулай муҳитни таъминлайди. Бироқ, ҳозирги даврга келиб табиатга антропоген таъсирлар туфайли чиқиндиларнинг атроф-муҳитга кўплаб чиқарилиши орқали, табиатнинг ўзи тозалашга улгурмай қоладиган ҳолатга келиб қолмоқда.

Жамият ривожланиши жадал суръатларда бўлишига мос ҳолда инсон фаолияти таъсирида биосферанинг ўзгариши жуда тезлик билан бормокда. Биосферанинг ўзгаришидаги меъёрий ҳолатдан чиқилиши эртами-кечми экологик ҳалокатга олиб келади. Экологик ҳалокат экологик муаммолар туфайли юзага келади. Буни Ердаги ҳароратнинг меъёрга нисбатан ортиб кетиши, музликлар эришининг тезлашиши, бўрон-довуллар бўлиши каби инсон ва барча мавжудотлар яшаш муҳитининг бузилиши орқали тушунилади.

Атроф-муҳитнинг ифлосланиши деганда асосан атмосфера ҳавоси, сув ва тупроқнинг ифлосланиши тушунилади. Бу ўринда атмосфера ҳавоси газ, тутун, буғ, чанг каби моддалар меъёридан ортиқча бўлиши ҳисобига ифлосланиши асосий тушунча бўлиб ҳисобланади. Аҳоли яшаш жойларидаги мавжуд йўлларда ҳаракатланувчи транспорт воситаларининг ўзидан чиқараётган чанглари шу ердаги инсонлар учун кўпроқ зарар келтиради. Шунинг учун ҳам ушбу чанглари камайтириш мақсадида ҳозирги даврга келиб дунё мамлакатлари аҳолиси саломатлигини сақлаш мақсадида экин майдонлари, ўрмонларни кўпайтириш кўзда тутилиши баробарида, ҳаттоки автомобил йўлларининг асосий ихота қисмларига ҳам дарахт ва турли гул кўчатларини экиш белгилаб қўйилган. Бу дарахтлар шовқин, газ каби чанглари ютиши тажрибада аниқланган

Автомобиллар йўлларининг ихота майдонлари тўғрисида Ўзбекистон республикасининг Қонунчилик палатаси томонидан 2007 йил 29 июнда қабул қилинган, Сенат томонидан 2007 йил 24 августда маъқулланган “Автомобиль йўллари тўғрисида” Қонунининг 3-моддаси - “асосий тушунчалар”да – “...**ажратилган минтақа** — автомобиль йўли, унинг тегишли конструктив элементлари ва муҳандислик иншоотлари, шунингдек автомобиль йўлидан фойдаланиш учун зарур бўлган бинолар, иншоотларни жойлаштириш, ихота ва манзарали дарахтзорлар барпо этиш учун доимий фойдаланишга қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда бериладиган ер участкаси” – деб белгилаб қўйилган. Шунга мувофиқ равишда ихота майдонларига ҳам эътибор бериш талаб этилади. Бу борада мамлакатимизда, қолаверса, ҳар бир ҳудудларда амалий ишлар олиб борилмокда.

Экологик маълумотларга кўра бир инсон нафас олиши учун зарур бўлган мўътадил ҳаво таркибини 50 м^2 майдондаги яшил экинзорлар таъминлаб беради. Лекин, атмосферада карбонат ангидридининг аксарият қисми шамол таъсирида тарқалиб кетади ва кўп бўлмаган қисмигина яшил экинзорлар томонидан ўзлаштирилади. Бироқ, оддий экинзорлардаги ўсимликларга нисбатан дарахтзорлар таққослаб кўрилганда, шу зарурий майдондаги экинлар ўрнини кўпи билан 2та дарахт босиши мумкин. Чунки, дарахтларнинг барглари ёйилмаси оддий ўсимликларникидан бирнеча баробар катта бўлади.

Ўтказилган тажрибалар шуни кўрсатадики, шапалоқ баргли дарахт тутиб қолган чанглари шамол таъсирида кўпи билан 20 % қисмигина учади. Қолган қисми эса, ёгин билан бирга тупроққа тушади. шунинг учун ҳам автомобиллар учун ажратилган йўлларнинг ихотазор қисмига учун экиладиган дарахтларни танлашда уларнинг барглари ҳам эътибор бериш зарур.

Хулоса қилиб айтганда, ихотазорларга экиладиган дарахтларни танлашда албатта чангларни кўп ушлайдиган арча ва шпалоқ баргли акациялар экилиши мақсадга мувофиқ бўлиб ҳисобланади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Қайимов А.Қ., Дж.Турок. Аҳоли яшаш жойларини кўкаламзорлаштириш. –Т.: «Fan va texnologiya», 2012, 124 бет.
2. Баҳриддинов Н.С., Юлдашев Ш.Ш.